

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIMI VAZIRLIGI

AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA

INSTITUTI

**O‘ZBEK ADABIYOTI KAFEDRASI**

5111200 - o‘zbek tili va adabiyoti bakalavr

ta’lim yo‘nalishi bitiruvchisi

**Erkinboyeva GULZODA ILHOMBEK QIZINING**

**“Adabiy ta’limda xalq maqollarini o‘rgatish  
usullari”**

mavzusidagi

**BITIRUV - MALAKAVIY ISHI**

NUKUS – 2017

Bitiruv malakaviy ishi o'zbek adabiyoti kafedrasida yig'ilishining  
2017- yil \_\_\_\_ maydagi \_\_\_\_ bayonnomasi bilan himoyaga tavsiya qilindi.

Fakultet dekani:	f.f.n., dots. G.Qurbaniyazov
Kafedra mudiri:	f.f.d., prof. K.Quramboyev
Ilmiy rahbar:	f.f.n., dots. O.Duysenboyev, N.Allamberganova
Bitiruvchi:	G.Erkinboyeva

Erkinboyeva Gulzoda Ilhombek qizining «Adabiy ta'limda xalq  
maqollarini o'rgatish usullari» mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga Davlat  
attestatsiya komissiyasining qarori bilan «\_\_\_\_» ball («\_\_%») qo'yildi.

«\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2017- yil

DAK kotibasi:	N.Allamberganova
---------------	------------------

## MUNDARIJA:

KIRISH. Bitiruv malakaviy ishining umumiy tavsifi ... ..	4
<b>I BOB. O‘ZBEK XALQ OG‘ZAKI IJODINI O‘RGANISHNING YETAKCHI TAMOYILLARI</b>	
1.1. Mustaqillik davrida xalq og‘zaki ijodini o‘rganish masalalari. ....	8
1.2. O‘zbek folklorining tur va janr xususiyatlari.....	15
<b>II BOB. ADABIYOT DARSLARIDA XALQ MAQOLLARINI O‘RGATISH</b>	
2.1. O‘zbek xalq maqollarining mavzu ko‘lami.....	21
2.2. Maqollar mavzusini o‘qitishning o‘ziga xos xususiyatlari .....	33
<b>III BOB. ADABIY TA‘LIMDA O‘ZBEK XALQ MAQOLLARINI O‘RGATISH BO‘YICHA METODIK TAVSIYALAR</b>	
3.1. Xalq maqollarini o‘rgatishda interfaol usullardan foydalanish. . . . .	41
3.2. Ochiq dars ishlanmasi. . . . .	51
XULOSA . . . . .	60
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR. . . . .	62

## **BITIRUV MALAKAVIY ISHINING UMUMIY TAVSIFI**

**Mavzuning dolzarbligi.** Mustaqillik kunlarida gullab yashnayotgan adabiyotimizning ildizlari qadim-qadimlarga borib taqaladi. Avlod-dan-avlodga o'tib kelayotgan boy adabiy merosimiz – xalq dostonlari, maqollar, topishmoqlar, afsonaviy rivoyatlar, qo'shiqlar, askiya va boshqa ko'plab janrlar xalq og'zaki ijodining asosini tashkil qiladi.

Prezidentimiz I. A. Karimovning bir qator asarlarida ham xalq og'zaki ijodiga, milliy qadriyatlarimizga yuksak baho berilgan. Ularni qadrlash keyingi avlodga etkazish haqida jon kuydirib aytgan so'zlari bor: «Xalqimiz juda dono xalq. Ular yaratgan xalq ijodi namunalari uzoq yashaydi. O'z tarixini bilgan, undan ruhiy quvvat oladigan xalqni engib bo'lmas ekan, biz haqqoniy tariximizni tiklashimiz, xalqimizni, millatimizni ana shu tariximiz bilan qurollantirishimiz zarur».

Haqiqatdan ham xalq og'zaki ijodi – dunyoga tengdosh san'at. Har xalqning og'zaki ijodi, o'sha xalqning bo'y-bastini, fe'li va an'analarini, jo'g'rofik o'rni va tabiatini aks ettirib turuvchi boqiy ko'zgidir.

Biz ana shu ko'zgu orqali har bir xalq o'tmishini, bugunini, orzulari va istiqbolini ko'rib turamiz. Biz ana shu ko'zgu vositasida olamshumul ezgu niyatlar, odamiy va olamiy fazilatlar, vahshiylik va yomonlikka nafrat kabi mushtarak tuyg'ular dunyoning barcha xalqlari uchun aziz va qadrlı ekanini ko'rib quvonamiz.

Shuning uchun ham dunyo xalqlarining og'zaki ijodini bezab turgan, bir-biridan qadimiy doston va ertaklar, askiya va laparlar, qo'shiqlar va topishmoqlar odamlarni, bashariyatni nurafshon kunlar sari etaklab keldi, bundan keyin ham shunday bo'lib qolaveradi.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** O'zbek fol'klorshunosligi tarixida bir qator yirik olimlar xizmatini e'tirof etish mumkin. V. M. Jirmunskiy o'zbek fol'klorshunosligiga katta hissa qo'shgan olimdir. O'zbek fol'klorshunoslaridan Hodi Zaripov, Muzayana Alaviya, Mansur Afzalov, To'ra Mirzaev, Malik Murodov, Muhammadnodir Saidov, Bahodir Sarimsoqov, Chori Hamro,

Omonulla Madaevlar o'zbek xalq o'g'zaki ijodining tur va janrlarini muayyan darajada tadqiq qilganlar. Xususan xalq maqollarini o'rganishda To'ra Mirzayev, Asqar Musaqulov, Bahodir Sarimsoqov, Shomirza turdimovlarning tadqiqotlarini misol qilish mumkin.

Hozirgacha ta'lim tizimida o'zbek adabiyoti o'qitishning turli masalalariga bag'ishlab tadqiqotlar olib borildi. O'zbekiston Milliy universiteti, Nizomiy nomidagi TDPUning tegishli kafedralari o'qituvchi va tadqiqotchilari tomonidan adabiyot o'qitishning dolzarb masalalariga bag'ishlangan metodik maqolalar to'plamlari, darslik va qo'llanmalar chop etildi.<sup>1</sup> Professor B.To'xlievning adabiyot o'qitish metodikasi borasidagi qator ilmiy ishlari, professor Q.Yo'ldoshevning "Adabiyot o'qituvchisiga metodik yordam" turkumidagi risolalari, Nizomiy nomidagi TDPU O'zbek tili va adabiyotini o'qitish metodikasi kafedrasini tomonidan chop qilingan maqolalar to'plamlari, ushbu kafedra tashkil qilayotgan "Til va adabiyot ta'limida yangi pedagogik texnologiyalar" respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari, shuningdek, respublikamizda nashr qilinayotgan "Til va adabiyot ta'limi", "O'zbek tili va adabiyoti" kabi manbalarda metodist olimlar va adabiyot oqituvchilari tomonidan izlanishlar olib borilgan.

**Bitiruv malakaviy ishining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Tadqiqot Ajiniyoz nomidagi o'zbek adabiyoti kafedrasining "2015-2020 yillarga mo'ljallangan BMI mavzulari banki" istiqbol rejasiga muvofiq amalga oshirildi.

**Tadqiqotning maqsadi.** Adabiyot darslarida xalq og'zaki ijodi bilan bog'liq nazariy ma'lumotlarni o'rgatish, o'zbek xalq maqollarini o'qitishning samarali usullarini ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari.** Bitiruv malakaviy ishini yoritish davomida:

-adabiyot darslarida xalq og'zaki ijodi namunalarini o'rgatishning usul va uslublarini yaratish;

---

<sup>1</sup> Bu haqda qarang: To'xliev B. Adabiyot o'qitish metodikasi. T., 2006; Filologik talimda innovatsion texnologiyalar. T., 2004; O'zbek adabiyotini o'qitishning dolzarb muammolari. T., 1997; Yo'ldoshev Q. Adabiyot o'qitishning ilmiy-nazariy asoslari. T., 1996; Filologik talim masalalari. T., 2007.

-xalq og'zaki ijodi bilan bog'liq nazariy ma'lumotlarni o'quvchilar ongiga yetkazishning samarali usullarini ishlab chiqish masalalariga e'tibor qaratildi;

-Barkamol shaxs tarbiyasida xalq maqollarining muhim didaktik vosita ekanligini ko'rsatish;

- Maqollarni o'rgatish bo'yicha tavsiyalar berish kabilar asosiy vazifalar sifatida belgilab qo'yildi.

**Tadqiqotning obykti.** Adabiyot darslarini tashkil etish haqidagi ilmiy ishlar, maktab dastur va darsliklari mazkur ishga jalb qilindi.

**Tadqiqotning predmeti.** Umumta'lim maktablari dastur va darsliklaridan joy olgan o'zbek xalq maqollarini o'rgatish usullarini tadqiq qilish.

### **Tadqiqotning metodologik asoslari va metodlari.**

Bitiruv malakaviy ishini yozishda O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimovning va hurmatli prezidentimiz SH.M.Mirziyoyev asarlari va nutqlarida milliy mafkura va milliy g'oya, ma'naviy qadriyatlar til, o'zlikni anglash, madaniy meroslarga munosabat, ajdod-u avlodlarimizga ehtirom borasida bildirgan fikr- mulohazalari hamda adabiyot o'qitish metodikasiga oid tadqiqotlar metodologik asos vazifasini o'tadi.

Malakaviy-bitiruv ishni yozish davomida kuzatish, tavsiflash, qiyoslash, tahlil qilish kabi usullardan foydalanildi.

**Ishning ilmiy yangiligi.** Ishda o'zbek adabiyoti o'qitish nazariyasi va metodikasidagi mavjud qarashlar asosida adabiyot darslarida o'zbek xalq maqollarini o'rgatish haqidagi fikrlar umumlashtirilib, chuqur ilmiy-nazariy xulosalar chiqarildi. Bunda:

-adabiyot darsliklarida xalq og'zaki ijodiga oid nazariy tushunchalarning berilishi bo'yicha munosabat bildirildi;

-tasavvuf adabiyoti vakillari ijodini o'qitishdagi murakkabliklar aniqlanib, o'quvchilar ongiga yetkazish usullari o'rganildi.

-mumtoz badiiy matnlar ustida ishlashda ifodali o'qishning o'rni va ahamiyati haqidagi fikrlar umumlashtirildi;

-Mashrab ijodini o'rgatishning o'ziga xosliklari tadqiq qilindi hamda o'qitish bo'yicha tavsiyalar berildi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqotning ilmiy qimmatini adabiyot darslarida aruz she'riy tizimida yaratilgan asarlarni o'rgatishga bag'ishlanganligi bilan xarakterlanadi. Shuningdek, tadqiqotning xulosalari va tahlil materiallari umumta'lim maktablarining adabiyot darslarida she'riy tizimlarga oid nazariy tushunchalarni o'rgatish masalalariga oydinlik kiritadi va o'rgatishda adabiyot o'qituvchilari uchun manba bo'la oladi. Shuningdek, darsdan tashqari mashg'ulotlarni o'tkazishda ham tadqiqot materiallaridan unumli foydalanish mumkin.

**Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi.** BMI Ajiniyoz nomidagi Nukus DPI o'zbek adabiyoti kafedrasida yig'ilishida muhokama qilinib, himoyaga tavsiya qilingan. Tadqiqot natijalari yuzasidan Nukus shahri 38-maktab pedagogik kengashida ma'ruza qilingan va ochiq dars o'tkazilgan.

**Ishning tuzilishi va hajmi.** BMI uch bob, umumiy xulosalar va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Ishning umumiy hajmi 62 sahifani tashkil qiladi.

# I.BOB.O‘ZBEK XALQ OG‘ZAKI IJODINI O‘RGANISHNING YETAKCHI TAMOYILLARI

## **1.1. Mustaqillik davrida xalq og‘zaki ijodini o‘rganish masalalari**

O‘zbekistonning Mustaqil Respublika deb e‘lon qilinishi xalqimizning o‘nlab yillar davomida intiqlik bilan kutgan orzusi edi. Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq davlatimiz o‘tmish qadriyatlarini qaytadan tiklash, odamlar qalbida tutqunlikda yotgan madaniy merosimizga keng yo‘l ochish siyosatini amalga oshirdi. Dunyo ilmi taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shgan buyuk allomalarimiz nomlari, ularning kashfiyotlari haqidagi ma'lumotlar bilan bir qatorda turli munosabatlar bilan urf-odatlar, rasm-rusumlar ham tilga olina boshlandi.

Mustaqillik, umuman, xalq qadriyatlariga, xususan, xalq og‘zaki ijodiga bo‘lgan munosabatda keskin ijobiy o‘zgarish yasadi. Prezidentimiz Islom Karimovning “O‘zbekiston buyuk kelajak sari” asaridagi “Mustaqil O‘zbekistonni rivojlantirishning ma’naviy-axloqiy negizlari” deb atalgan bo‘limida: “O‘zbekistonni yangilash va rivojlantirishning yo‘li to‘rtta asosiy negizga asoslanadi”, - deyilgan. “Bu negizlar:

- umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik;
- xalqimizning ma'naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish;
- insonning o‘z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishi;
- vatanparvarlik”<sup>2</sup> – deb belgilab qo‘yilgan.

Yuqorida qayd etilgan to‘rt negizning har biri yo bevosita, yo bavoita xalq og‘zaki ijodi, ajdodlarimizning bizga qoldirgan ma'naviy boyligi – pand, o‘g‘itlari, el-yurt qadrini e'zozlash, millatimiz g‘ururini himoya qilishdek oliy tuyg‘ular bilan bog‘lanadi.

Sobiq sho‘ro tuzumi sharoitida turli ta'qiqlarga uchragan Navro‘z, “Alpomish”, “Ravshan” dostonlarning asl qadri tiklandi. Navro‘zni umumxalq bayrami sifatida tantana qilish an'anasi joriy bo‘ldi. 1999-yil 9-noyabr kuni esa “Alpomish”ning ming yillik to‘yi nishonlandi. Bu tantanada so‘zga chiqqan

---

<sup>2</sup> Karimov I.A. O‘zbekiston buyuk kelajak sari. – T.: O‘zbekiston, 1998. – B. 56.



yurtboshimiz Islom Karimov dostonning millatimiz gʻururini tarbiyalashdagi ahamiyatini alohida ehtirosli soʻzlar bilan izhor etdi:

“Alpomish” - oʻzbekning oʻzligini namoyon etadigan, mard va tanti xalqimizning yurak-yuragidan chiqqan, ota-bobolarimiz avlodlardan avlodlarga oʻtkazib kelayotgan qahramonlik qoʻshigʻidir”.<sup>3</sup>

“Alpomish” dostonining 1000 yillik toʻyining oʻtkazilishi folklor asarlariga boʻlgan munosabatni tubdan oʻzgartirdi,

2008-yilda “Maʼnaviyat” nashriyoti I.Karimovning “Yuksak maʼnaviyat – yengilmas kuch” deb atalgan kitobini nashrdan chiqardi. Avvalo, aytish kerakki, kitobxon asarning boshidan oxirigacha xalq qadriyatlarini, oʻtmish madaniyat, tarix haqidagi chuqur ilmiy mulohazalar bilan tanishadi. Ayniqsa, muallifning xalq ogʻzaki ijodiga boʻlgan hurmati har bir sahifada aniq ifodalanib turadi: “Ajdodlarimiz tafakkuri va dahosi bilan yaratilgan eng qadimgi toshyozuv va bitiklar, xalq ogʻzaki ijodi namunalaridan tortib, bugungi kunda kutubxonalarimiz xazinasida saqlanayotgan ming-minglab qoʻlyozmalar... bizning buyuk maʼnaviy boyligimizdir”.<sup>4</sup> Yurtboshimizning ushbu kitobi dasturulamal manbalardan biri sifatida oʻz oʻrniga ega.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish toʻgʻrisidagi” farmoni oʻzbek tili, adabiyoti va folklorining davlat miqiyosida qadr topishi, eʼtiborda boʻlishiga dalil boʻldi. Ushbu farmonning amalga oshish jarayonlari va oʻzbek folkloriga, folklor asarlariga, tadqiqotlariga eʼtiborning kuchayishi folklorshunoslik sohasining keng rivoj topish imkoniyatlarini ochdi.

Maʼlumki, maʼnaviyat qadim zamonlardan inson dunyoqarashini, xatti-harakatini, jamiyatda tutgan oʻrnini, xalqqa, vatanga, atrofidagi odamlarga boʻlgan munosabatini boshqaruvchi omil hisoblanadi. Maʼnaviy qashshoq kimsa hayotda roʻy berayotgan voqaealarga loqayd boʻladi. Loqaydlik esa tuzatib

---

<sup>3</sup> Karimov I. "Alpomish " dostoning 1000 yilligiga bagʻishlangan tantanali marosimda soʻzlagan nutq. // Xalq soʻzi, – 1999. – 9 noyabr`.

<sup>4</sup> Karimov I. Yuksak maʼnaviyat – engilmas kuch. – T.: Maʼnaviyat, 2008. – B. 31.

bo'lmis oqibatlarga olib keladi. Ma'naviy qashshoq odam uchun Vatan, xalq, oila kabi muqaddas tushunchalar yot. Shuning uchun keksa avlod, avvalo, farzandning ma'naviy dunyosini shakllantirish chorasini rejalashtirgan. Folklor asarlari qadim-qadimda insonning ma'naviy tarbiyasi uchun xizmat qilib kelgan va bugungi kunda ularning bu sohadagi o'rni yanadi kengaymoqda.

Xullas, xalqimiz og'zaki ijodining davlat maqomida e'zozlanishini O'zbekistonning mustaqillikka erishishining ijobiy natijasi sifatida baholash mumkin.

**1. Folklor atamasi. Folklor – sinkretik ijod.** Inson qadimdan atrof muhitda ro'y berayotgan voqeya-hodisalarga o'z munosabatini bildirgan. Bu munosabat, avvalo, turli xatti-harakatlar, ovozlari, ehtiroslar vositasida amalga oshgan. Keyinchalik so'zlar, so'z yig'indisi, raqslar his-tuyg'ularni ifodalagan. Yana keyinroq odamlar o'zlaricha dunyoning, tabiatning, hayvonlar, o'simliklar, tog'lar, suvlarning paydo bo'lishini izohlovchi to'qima hikoyalar o'ylab topadilar. Yigitlar, qizlar muhabbat qo'shiqlarini to'qiydilar. Qabila-urug'ning mard va jasur yigitlari haqida, ularning g'aroyib qahramonliklari haqida afsona va rivoyatlar paydo bo'ladi. Bularning hammasi hali yozuv madaniyati vujudga kelmasdan oldin jamoa-jamoa bo'lib yashayotgan aholi o'rtasida shuhrat topadi. Bugungi kunda biz ularni "xalq og'zaki ijodi" deb atashga odatlanganmiz. Shuning uchun ham xalq og'zaki ijodini milliy qadriyatlar deb atash odat bo'lgan. Xalq og'zaki ijodi ilmda folklor deb yuritiladi. Bu atamani 1846-yilda ingliz olimi Uilyam Toms taklif qilgan bo'lib, uning ma'nosi "xalq donoligi" degan tushunchadan iborat. Aslini olganda, folklor deganda, xalq tomonidan yaratilgan hamma san'at namunalari tushuniladi. Me'morlik, naqqoshlik, ganchkorlik, zardo'zlik, musiqa, raqs, og'zaki adabiyot namunalari – hammasini folklor deb tushunish qabul qilingan. Har bir san'at sohasida ish olib borayotgan mutaxassis o'zi tanlagan turni "folklor" deb atayveradi. Masalan, musiqachi xalq kuylarini, xoreograf xalq raqslarini, arxitektor xalq me'morchiligini, folklorshunos olim xalq dostonlari, ertaklarini folklor asari deb hisoblaydi.

Folklor so'z san'atining asosini tashkil etadi. Ayni choqda folklor asarlari

hamisha jonli ijro bilan aloqada bo‘ladi. Shuning uchun ertak, qo‘shiq, doston va boshqa bir qator og‘zaki ijod asarlari ijro davomida *sinkretik* san‘at namunasi hisoblanadi. *Sinkretik* so‘zi birlashmoq, qorishmoq, aralashmoq tushunchasini bildiradi. Doston kuylanganda musiqa, so‘z, sahna san‘atlari qorishib uyg‘unlashadi. Ya‘ni baxshi do‘mbira, soz chalib xonanda sifatida yoqimli ovozda doston aytadi. Doston esa matndan – so‘zlardan iborat bo‘ladi, musiqa asbobida ijro etilgani uchun baxshi xonandalik, sozandalik qiladi. Ayni paytda dostondagi voqyealarni tovush tovlanishi – sahna san‘ati – aktyorlik mahorati bilan hikoya qiladi. Natijada sinkretik san‘at namunasi vujudga keladi.

3. **Folklor – so‘z san‘ati sifatida.** Xalq og‘zaki ijodining so‘z san‘ati ekanligini tushunishdan avval san‘atning o‘zi nimaligini bilish lozim. 5 jildlik “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da (3-jild. 442-b): “San‘at” [تَعْنَص] - ish, mehnat; mahorat; kasb-hunar deb ko‘rsatilgan. Agar izohdagi so‘zlarga e‘tibor bersak, san‘at deganda, mahorat bilan amalga oshirilgan mehnatni tushunish anglashiladi. San‘atni mahoratsiz tasavvur qilish mumkin emas.

Birinchidan, har bir so‘z san‘ati namunasi, jumladan, xalq og‘zaki ijodidagi qo‘shiq, ertak, doston va boshqa asarlarda fikriy yangilik bo‘lishi lozim. Bu yangilik kichik hayotiy voqyeadan tortib murakkab ijtimoiy vaziyatlarni baholash bilan belgilanadi. Inson hayoti davomida sonsiz-sanoqsiz yangiliklarga duch keladi. Katta avlod vakili tajribasidagi oddiy haqiqatlar yoshlar uchun yangilik hisoblanaveradi. Shuning uchun xalq og‘zaki ijodi asarlarini eshitganimizda, ular bilan kitobdagi matn vositasida tanishganimizda juda ko‘p yangi-yangi fikrlarga duch kelamiz.

Ikkinchidan, asar shakli va mazmuni jihatdan mutanosib bo‘lishi kerak. Odatda, shakl qanchalar ixcham, mazmun qanchalar keng ko‘lamga ega bo‘lsa, asar shunchalar qadrlidir. Xalqimiz og‘zaki ijodida ko‘pincha bunday fazilat maqollarda namoyon bo‘ladi. Bir jumladan iborat maqolning mazmunini hayotiy dalil va misollar bilan soatlab tahlil qilish mumkin. Lekin hamma janrdagi asarlarga ham bu o‘lchov bilan yondashish mumkin emas. Xususan, dostonlar ming-ming misralardan iborat she‘riy va hajm jihatdan katta nasriy

parchalardan tashkil topadi. Ularning mazmuni ham millatimiz vakillarining hayotini tasvirlovchi lavhalardan iborat. Xalq farzandlarining hayoti esa el va yurt taqdiri asosida yoritiladi. Shunday qilib, topishmoq, askiya, qo‘shiq va boshqa janrdagi asarlar ham o‘zlarida aks ettirayotgan mazmun bilan shaklan mutanosib bo‘lishi zarur.

Uchinchidan, badiiy asar, xususan, xalq og‘zaki ijodida umuminsoniy muammolar ifodalanadi. Albatta, har bir xalqning o‘z milliy xususiyati, milliy tabiati, ya'ni milliy mentaliteti mavjud. Ammo bu milliylik badiiy adabiyotda umuminsoniy muammolarning aks etishiga mutlaqo salbiy ta'sir ko'rsatmaydi. Chunki yer kurrasining turli mintaqalarida yashaydigan, turli dinlarga ishonuvchi xalqlarning hayotiy munosabatlarida mushtarak nuqtalar juda ko‘p. Har bir millatda Vatan, xalq, ota-ona, aka-uka, opa-singil, o‘gay ota, o‘gay ona, ustoz, shogird kabi tushunchalar bor.

To‘rtinchidan, xalq og‘zaki ijodi so‘z san‘ati ekanini aytdik. Bu fikr og‘zaki ijodning san‘at sifatini ta'minlaydigan asosiy omil so‘z ekanini tasdiqlaydi. Har bir san‘at turining o‘z quroli bo‘lganidek, og‘zaki ijodning ham o‘z quroli bor. Bu qurol so‘z hisoblanadi.

Fikrimizning qanchalar to‘g‘ri ekani xalqimiz ijodidagi askiya janri misolida to‘liq isbotini topadi. Avvalo, askiya janri (bu haqda askiya mavzuida mukammal ma'lumot beriladi) dunyodagi birorta xalq og‘zaki ijodida uchramaydi. Janrning asosini milliy tilimizdagi omonim so‘zlarning nihoyatda ko‘pligi tashkil etadi. So‘zlarning shaklan bir xil, ammo mazmunan turli ma'nolarni bildirishi bir so‘zni talaffuz qilishda birato‘la bir necha fikrni ifodalash imkonini beradi. Natijada, so‘z o‘yini usuli bilan kulgi paydo bo‘ladi va askiya vujudga keladi.

Beshinchidan, xalq og‘zaki ijodi badiiy adabiyotning tarkibiy qismidir. “Badiiy” so‘zining go‘zal, ajoyib ma'nolarga ega bo‘lishi lug‘atlarda qayd etilgan. Asar matnini go‘zal qilib turadigan omil esa, ko‘pincha, badiiy tasvir vositalariga bog‘liq. Badiiy tasvir vositalarini mutaxassislar “badiiy san‘atlar”, “tasvir vositalari”, “she'r san‘atlari” deb ham ataydilar. Ularning sifatlash,

o'xshatish, mubolag'a kabi o'nlab turlari mavjud. Aslini olganda, har bir badiiy san'at namunasi ham o'ziga xos kashfiyot hisoblanadi. Ertakchi tasvirlayotgan malikaning go'zalligini o'n to'rt kunlik oyga o'xshatadi. Qiz shu qadar latofatga ega bo'ladiki, kulsa, atrofga gul, yig'lasa, dur sochiladi. U yurganida oyog'i ostidagi izlar o'rnidan rayhon, jambillar o'sib chiqadi. Doston qahramonlari shu qadar jahldorki, g'azabga to'lganida mo'ylovining ustini qirov bosadi, tikilganida tog'-toshlar qumdek maydalanib ketadi.

“Xalq og'zaki ijodi – so'z san'ati” deganimizda, shuningdek, ertakchi, baxshi, qo'shiqchi, askiyaboz, latifachi ijrochilarning tinglovchilarga bag'ishlayotgan ma'naviy lazzatini ham unutmazlik lozim. Xalq qo'shiqlarida aks etgan his-tuyg'u, ichki kechinmalar; ertaklardagi g'aroyib voqyealar; dostonlardagi go'zal tasvirlar, eng avvalo, zargarona tanlangan so'zlardan iboratligi, ikkinchidan, ularning mahorat bilan ijro qilinishi asrlar davomida xalqimizga zavq bag'ishlagan. Shuning uchun ham mazkur asarlar o'zbek xalqi ma'naviy xazinasining bebaho qadriyatlarini sifatida hamisha e'zozlangan.

Milliy istiqlol sharofati tufayli mamlakatimizda amalga oshirilayotgan yangilanish jarayoni ijtimoiy hayotning barcha jabhalarini tobora kenroq qamrab olmoqda. Bunda xalqimizning asriy ma'naviy qadriyatlarini tiklash, uzoq va yaqin tarixdagi madaniy-adabiy merosni mustaqillik mafkurasi asosida xolis o'rganishga ham katta e'tibor qaratilmoqda. Zero, mamlakatimiz birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek, “Xalqning ma'naviyati va madaniyati, uning haqiqiy tarixi va o'ziga xosligi qayta tiklanayotganligi jamiyatimizni yangilash va taraqqiy ettirish yo'lida muvaffaqiyatli ravishda olg'a siljitishda hal qiluvchi, ta'bir joiz bo'lsa, belgilovchi ahamiyatga egadir”.

Insoniyat asrlar osha o'zining yuksak estetik ideallarini o'zi yaratgan san'at asarlari orqali avloddan-avlodga o'tkazib, har bir shaxsda uni shakllantirishga, kamol toptirishga intilib kelmoqda. Binobarin, estetik ideal insonda vatanparvarlik, mehnatsevarlik, odob, rostgo'ylik, halollik, kamtarlik, do'stlik, mardlik, donolik, andishalilik kabi fazilatlarning mujassamlashganligini taqozo etadi. Shu nuqtai nazardan qarasak,

maqollar xalqning butun estetik idealini qisqa, siqiq ifodalovchi qomusga o'xshab ketadi. Maqollar xalq nutqida har kuni ko'plab qo'llaniladi va shu orqali xalq tarbiyasining oddiy, ammo sermahsul jarayoni davom etaveradi, abadiy tus oladi.

Shunday ekan, xalq ma'naviyatining ajralmas bir qismi sifatida qaraladigan xalq maqollari yoshlarning, xususan, maktab o'quvchilarining nutqini o'stirishda, ularni xalq donishmandligi durdonalari bilan tanishtirishda hamda ularda xalqchil hislatlarni tarbiyalashda katta ahamiyatga ega. Shu bois ham mazkur ishimizda 5-sinfda "Maqollar" mavzusini o'qitishda sharhlash usulidan foydalanish va bu orqali mazkur mavzuni o'quvchilar ongu-shuuriga singdirish haqida o'z mulohazalarimizni bildirishga harakat qildik.

## 1.2. O'zbek folklorining tur va janr xususiyatlari

Xalq og`zaki ijodi — mehnatkash omma ijodi, xalq san`atining boshqa turlaridan ( musiqqa, teatr, raqs, o`yin, tasviriy va amaliy san`at va boshqalardan ) o`ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadigan og`zaki so`z san`atidir. Har bir xalqning asrlar osha qilgan orzu-istaklarini aks ettirgan boy og`zaki so`z san`ati bo`lganidek, o`zbek xalqining ham og`zaki adabiyot durdonalari mavjud. Mehnatkash omma tomonidan yaratilib, xalqning iste`dodli vakillari ijrosida sayqal topib, avloddan avlodga o`tib kelayotgan badiiy asarlar o`zbek xalq poetik ijodini tashkil etadi.

Og`zaki so`z san`ati «fol`klor» yoki xalq og`zaki poetik ijodi atamalari bilan ifodalanadi. «Fol`klor» atamasi birinchi marta XIX asrning tadqiqotchisi Vil`yam Toms tomonidan 1846 yilda qo`llangan bo`lib, u ikki so`zdan: «fol`k» (folk ) — xalq, «lor» (lor) – bilim, donolik, donishmandlik, ya`ni «xalq donishmandligi», «xalq donoligi» demakdir. «Fol`klor» atamasi xalqaro atama hisoblanadi, lekin u turli mamlakatlarda turlicha qo`llanadi. Masalan, Angliya va AQShda xalq badiiy faoliyatining barcha turi (poetik ijod, musiqqa, raqs,teatr, tasviriy va amaliy san`at ), shuningdek, irim-sirim, ishonch-e`tiqod va urf-odatlar shu atamalar bilan ataladi.

Xalq og`zaki ijodini o`rganuvchi fan «fol`klorshunoslik» deb yuritiladi.

Fol`klor ommaviy ijod. O`zbek xalq og`zaki badiiy ijodi mehnatkash xalq tomonidan asrlar davomida yaratilib, og`izdan og`izga, avloddan avlodga o`tib kelgan jamoa ijod mahsulidir. Chunki fol`klor asarlari bir kishining ongli faoliyati natijasida yaratilmay, balki butun bir jamoaning ijodiy tajribasi asosida vujudga keladi. Fol`klor qadim zamonlarda ommaviy ijod sifatida yuzaga kelgan va uning ilk namunalari ko`pchilik ijrosiga mo`ljallangan. O`sha davrlarda shaxsiy ijodkorlar hali ajralib chiqmagan edi. Mehnat jarayoni, ijtimoiy-siyosiy munosabatlarning takomillashib borishi, xalq estetik tafakkurining o`sishi natijasida alohida ijrochilar — qo`shiqchilar, ertakchilar, baxshilar, qiziqchilar, xalfalar ajralib chiqa boshladilar. Tilla kampir, Sulton kampir, Jumanbulbul, Qurbonbek, Xidir shoir, Mulla Xolnazar, Haybat soqi, Fozil Yo`ldosh o`g`li,

Ergash Jumanbulbul o`g`li, Po`lkan Jon Murod o`g`li, Said Murod Panoh o`g`li, Abdulla shoir, Umar shoir, Qodir Rahim o`g`li, Bola Baxshi va boshqalar xalq orasida mashhur ijodkor sifatida obro`ga erishgan san`atkorlardir.

Fol`klor –og`zaki ijodi. Xalq ijodiyotining yaratilishi va yashash tarzi og`zaki usulda aks etadi. Xalq og`zaki ijodi namunalari og`zaki ravishda ijro etilgan va bu jarayonda asarning shakli va mazmuni o`zgarishi yoki biror qismi tushib qolishi mumkin. Ba`zi dostonlardagi qo`shiq qismining unutilishi oqibatida u ertak shaklida yashashi mumkin yoki aksincha, ertak dostonga aylanishi mumkin. Xalq og`zaki ijodi asoslari og`zaki aytiladi, yozma adabiyot esa faqat o`qiladi.

Fol`klorda an`anaviylik xususiyati uning g`oyaviy-estetik mohiyatini belgilaydi.

An`ana – jamoa ijodkorligining mahsuli, shu bilan birga, fol`klor asarlarini ommaviy holda saqlab qolish ham o`ziga xos shakl hisoblanadi. Og`zakilik fol`klorning o`zgarmas shakli bo`lib, o`z navbatida, xotirada saqlamoqni, yoddan aytishni, eslamoqni taqazo etadi. O`zbek baxshi-shoirlari o`rtasida qirqdan ziyod an`anaviy dostonlarni, qanchadan-qancha termalarni bilgan, kuylagan, yana o`zi to`quvchi ijodkorlarning borligi shu an`anaviy ehtiyojning hosilidir.

Xalqning asrlar davomida shakllangan badiiy zavqi estetik didi bor, fol`klor hamisha shu xalqona estetik printsipga amal qilib yashaydi. Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning xalq estetikasiga ko`rsatadigan ta`siri fol`klordagi an`anaviylikni harakatga soladi. Masalan: Ijtimoiy tafakkur taraqqiyotining xalq e`tiqodida yasagan tub burilishlari batik, qinna, burey-burey janrlari, shuningdek. «Sust xotin», «Choymomo», «Barot keldi» marosimlari so`nib, iste`moldan chiqib ketdi, keyingi davrlarda qo`shiq, maqol, askiya, og`zaki hikoya kabi janrlar davom etmoqda. Xalq ijodiyoti asarlari an`ana tarzida avloddan avlodga etib kelmoqda.

Xalq ijodiyoti asarlari jonli ijro davomida turli xil variantlardagina yashaydi. Fol`klorning yashash tarzi -- variantlilik. Variantlilik fol`klor tabiati,



uning yaratilishi va og`zaki ijodda yashash qonuniyatlaridan kelib chiqqan xususiyat bo`lib, u fol`klor asarlarining syujeti, obrazliligi, poetikasi, janr xususiyatlarini to`la qamrab oladi. Variant – ma`lum bir asarning jonli og`zaki epik an`ana zaminida vujudga kelgan, bir-birini inkor etmasdan, yonma-yon yashay oldigan va o`zaro farqlanuvchi turli-tuman nusxalardir. Masalan, mashhur «Alpomish» dostonining o`ttiz uchta to`liq va parchalardan iborat variantlari mavjud. Bu parchalar yigirma sakkiz dostonchidan yozib olingan. Variantlilik fol`klor asarlarining xalqchilligini, ommaviyligini hamda tarqalish chegaralarini belgilaydi. Fol`klorda kechayotgan o`zgarishlarning sabablarini aniqlashga xalq og`zaki ijodiyotida kechgan va kechayotgan jarayonlar asosida yotuvchi qonuniyatlarni ochish uchun boy manba beradi.

Fol`klor haqidagi fan – fol`klorshunoslik deyiladi. Xalq og`zaki ijodiyotining so`z san`ati sifatidagi xususiyatlarini, fol`klorning paydo bo`lishi, shakllanishi va taraqqiyot bosqichlarini, undagi ijodiy jarayon va yashash tarzi qonuniyatlarini, hayotiy mazmuni, ijtimoiy tabiati, g`oyaviy mohiyati, badiiy o`ziga xosligi, janrlarning xususiyati, shuningdek, yozma adabiyot bilan munoabati, o`zaro ta`siri, aloqalari, poetikasi, uslubi kabi masalalaridan bahs yuritadi. Fol`klorshunoslik ilmi bilan shug`ullanuvchi mutaxassis – fol`klorshunos deb ataladi.

O`zbek fol`klorshunosligi tarixida bir qator yirik olimlar xizmatini e`tirof etish mumkin. V. M. Jirmunskiy o`zbek fol`klorshunosligiga katta hissa qo`shgan olimdir. O`zbek fol`klorshunoslaridan Hodi Zaripov, Muzayana Alaviya, Mansur Afzalov, To`ra Mirzaev, Malik Murodov, Muhammadnodir Saidov, Bahodir Sarimsoqov, Chori Hamro, Omonulla Madaev va boshqalarni misol qilish mumkin.

Adabiyot – so`z san`ati. So`z san`atining dastlabki namunalari insoniyat nutqi paydo bo`lishi bilan paydo bo`la boshlagan. Uning paydo bo`lishida o`sha davr shart-sharoiti, odamlarning mehnat va turmush tajribalari, dunyoqarashi, urf-odat va marosimlari hal qiluvchi o`rin tutadi. Eng avval nasriy asarlar vujudga kelgan. Ular nihoyatda sodda bo`lib, turli xildagi undov-xitoblar va

voqealar bayonidan iborat bo`lgan xolos, ya`ni mehnatni yangilash tiruvchi, ruhni tetiklashtiruvchi, hayot og`ushiga olib kiruvchi ertak va afsonalar yaratildi, mehnat jarayonini ifodalovchi qo`shiqning namunalari paydo bo`ldi.

Eng qadimgi fol`klor namunalari yozuv yuzaga kelmasdan ancha oldin paydo bo`lgan va yozma adabiyotning tashkil topishiga muhim hissa qo`shgan. Ular asl holida bizgacha etib kelmagan yoki etib kelganlari ham og`izdan-og`izga, avloddan- avlodga o`tish jarayonida ijodiy ishlangan.

O`rta Osiyo xalqlarining eng qadimgi fol`klor namunalari ba`zi tarixiy yodgorliklar, ilmiy asar va yodnomalardagina saqlanib qolgan. Ular miflar, jangnoma ko`rinishidagi afsonalar, qahramonlik va pahlavonlik eposlari, qo`shiqlardan va maqollardan tashkil topgan.

O`zbek fol`klori janrlar tarkibining rang-barangligi bilan dunyo xalqlari poetik ijod taraqqiyotida alohida o`rin egallaydi. Bunday rang-baranglik esa, bir tomondan uzoq tarixga egaligini ko`rsatsa, ikkinchi tomondan uning boshqa xalqlar fol`klori bilan yaqindan munosabatda bo`lib, o`zining janrlar tarkibini kengaytirib berganligidan dalolat beradi. Adabiy tur janr va janriy xilma-xillik tushunchalari shunday hodisalarki, ular hayotni badiiy tasvirlash shakllari sifatida juda uzoq davrlar mobaynida vujudga kelgan barqaror shakllar bo`lib, juda sekinlik bilan o`zgarib boradi. Tur, janr va janriy xilma-xillikni farqlash asarni tinglovchilar, ijrochilar uchun ham, tadqiqotchilar uchun ham ahamiyatli. Tur va janrlarning paydo bo`lish taraqqiyoti o`rin almashishi, inqirozi adabiyot va fol`klor tarixida asosiy jarayon hisoblanadi.

Qadimgi grek faylasufi Aristotel` (eramizdan avvalgi 384-422) «Poetika»sidan boshlab, badiiy ijodning uch turi – epos, lirika, drama hozirgacha keng qo`llanilib kelmoqda.

Tur tushunchasi keng ma`noga ega. U o`z ichiga turli janrlarni qamrab oladi. Turlar voqelikni tasvirlash xarakteriga ko`ra bir-biridan farqlanadi. Epos voqelikni ob`ektiv holda hikoyaviy shaklda aks ettirsa, lirika sub`ektiv holda insonning voqelikdan olgan taassurotlarini ichki hayajonlarini tasvirleydi. Drama esa, qahramonlar nutqi va harakati orqali hayot voqealarini ifodalaydi.

Tur deganda voqelikni ifodalash yo`li, usuli tushunilsa, (epik, lirik, dramatik) janrlar deganda badiiy shakl tiplari (ertak, qo`shiq, maqol) tushuniladi. Ammo har bir janr ham xilma-xillikka ega. Bu uning mavzu-mohiyatidan kelib chiqadi. Masalan, ertaklar – sehrli ertaklar, maishiy ertaklar, hayvonlar haqidagi ertaklar.

Janr san`atning barcha turlarida keng qo`llanuvchi istilohiy ma`nolari haqida hozirga qadar juda ko`p talqinlar yozildi va u o`ziga xos hayotiy qamrov, yaxlit poetik tizim va tasvir tarziga ega bo`lgan tarixan shakllanib, doim rivojlanib boruvchi asar tiplari ma`nosida tushuniladi.

Fol`klor janrlarining ayrimlari turli marosimlar va mehnat turlari bilan bog`liq bo`lsa, boshqalari kuylash va mehnat turlari bilan bog`liq, yana boshqalari kuylash va o`ynab ijro etishga mo`ljallangan bo`ladi. Aslida esa, bu janrlarga boshqa jihatdan, ya`ni ularning ijro xususiyatlari va vazifalari nuqtai nazaridan yondashuvdir.

Shu jihatdan ular ikki guruhga bo`linadi: a) marosim fol`klori janrlari b) marosim bilan bog`liq bo`lmagan fol`klor janrlari. Fol`klor asoslarini kimga mo`ljallanganligiga qarab yana guruhlarga bo`linishi mumkin. Bolalar fol`klori. O`zbek fol`klorida turlar va janrlar quyidagicha tashkil topgan. Epik tur – mif, afsona, rivoyat, ertak, naql, latifa, lof, tarixiy qo`shiq, terma, doston va boshqalar. Lirik tur – marosim fol`klorining deyarli barcha janrlari, bolalar fol`klorining ko`pgina janrlari qo`shiqning hamma xillari, ashula va boshqalar. Dramatik tur – og`zaki drama , qo`g`irchoq o`yin, askiya va boshqalar. Maxsus tur -- oddiy o`tirish olqishlari, qarg`ish ,so`kish, maqol, matal, topishmoq.

O`zbek fol`klorining janrlar tarkibi boy va xilma-xil bo`lib, boshqa janrlar tarkibidan farq qiladi. Unda hamma xalqlar fol`klorida uchrovchi umumfol`klor janrlari – ertak, maqol va topishmoq mavjud. Rus xalqidagi bilina, skandinaviyaliklardagi aga, oltoyliklardagi qaylardan farq qiluvchi doston janri bor. O`zbek va tojiklardagi yo ramazon hayitliklar o`xshash janrlardir, lekin bunday o`xshash janrlar kam xarakter xususiyatlariga ko`ra o`zaro farq qiladilar. Bu narsa har bir xalqning tarixi, urf-odati, maishati , orzu-umidlari,

dunyoqarashi, ijtimoiy munosabatlari va turmush tarzining ifodasi bo`lgan fol`klorining o`ziga xosligi bilan ifodalanadi.

Xalq og`zaki ijodidagi ertak, afsona, rivoyat janrlari og`zaki aytiladi. Doston kuylash va aytishga mo`ljallangan. Lapar kuylab, raqsga tushib ijro etiladi. Og`zaki drama so`z va ba`zan kuy, harakat bilan birga ijro etiladi.

Qo`shiqlar. Yakka ijroda – lirik qo`shiqlar, tarixiy qo`shiqlar. Jamoa ijroda – yor-yor, o`lanlar, kelin salomlar, askiya, og`zaki drama.

O`zbek fol`klorida mavjud barcha janrlarning majmui tarixan vujudga kelgan yagona badiiy tizim bo`lib, xilma-xil ko`rinishdagi asarlarning murakkab va o`zigagina xos aloqalari hamda o`zaro ta`siri zamirida bunyodga kelgan. Janrlar tizimining shakllanishi va mavjudligi fol`klor taraqqiyotining eng muhim qonuniyatlaridan biri hisoblanadi.

## II BOB. ADABIYOT DARSLARIDA XALQ MAQOLLARINI O'RGATISH

### 2.1. O'zbek xalq maqollarining mavzu ko'lamini

O'zbek xalq maqollari mavzu ko'lamini haqida gapirganda uning g'oyat sermavzu ekanligini ta'kidlash joiz. Bunday bo'lishi tabiiy, albatta. Chunki xalq turmushining biror jabhasi yo'qki, xalq unga maqollar orqali munosabat bildirmagan bo'lsin. Mamlakatimizdagi adabiyot va san'at nashriyatida fol'klorshunoslar S.Xudoyberganov, M.Afzalov va S.Ibrohimovlar tomonidan to'planib, 1978 yilda chop etilgan «O'zbek xalq maqollari» kitobiga jamlangan maqollar 32 mavzuga ajratilgan holda berilgan. Albatta, bu to'plamga kiritilgan maqollarda davrning mafkuraviy qarashlari ham o'z aksini topgan. Xususan, xalq o'tmishi «feodalizm» va «kapitalizm» atamalarini bilan qoralanib, jamiyat hayotidagi, kishilar xarakteridagi ayrim illatlar ushbu tushunchalar bilan bog'liq ravishda talqin qilingan. Ayrim maqollarning «din ahllari»ga, «ezuvchilar»ga qarshi yaratilganligi qayd etilgan. Vaholanki, hamma aholi qatlamlari o'arasida bo'lgani kabi boylar orasida ham, dindorlar orasida ham yomon qiliqli, ta'magir va insofsizlar bo'lgan. Bu xil kishilarni fosh qilishga qaratilgan maqollarda butunisicha din emas, yoki butunisicha boylar sinfi emas, o'sha noinsof va din niqobi ostida o'z manfaatini ko'zlovchi ayrim shaxslar tanqid ostiga olingan.

Biz bitiruv-malakaviy ishimizning hajmi, maqsad va vazifalari taqozosi bilan qayd qilingan mavzularning eng zarur deb bilganlarimizning tahlilga tortmoqchimiz.

#### Vatanparvarlik mavzusidagi maqollar

Haqiqiy inson Vatan mehri, Vatan tuprog'i, va Vatan ishtiyoqi bilan tirikdir. O'zini Vatandan ayri his qilgan shaxsni inson nomi bilan atash noto'g'ri bo'lsa kerak, meningcha. Vatan tuyg'usi, ushbu muqaddas hissiyot sharq xalqlari, ayniqsa, o'zbek xalqida g'oyat kuchlidir. Odamlar orasidan o'lamushuk o'tib, bir-birlari bilan janjallashib qolishsa, birov-biroviga «Hali sen ko'rasan!» deb po'pisa qilishini ko'p eshitganmiz. Po'pisaning eshitgan kishining javobi tayin: «Ko'rganda ko'chirasanmi?» deydi. E'tibor bering, «Ko'rganda urasanmi?» yoki «O'ldirasanmi?» demaydi. Uning uchun ko'chirish, tug'ilgan

maskan – Vatanni tark etish o`limdan ham yomon. Bu millatdoshlarimizning tug`ilgan tuproqqa – Vatanga mehrining g`oyat cheksizligidan dalolat beradi. Xuddi mana shu mehr, muhabbat xalq maqollarida ham o`z aksini topgan, desak yanglishmaymiz.

Maqollarda o`z ifodasini topgan Vatan tushunchasi oddiy umrguzaronlik qiladigan, kun ko`rish uchun kerak bo`ladigan manzil tushunchasi emas, balki inson o`z e`tiqodi va intilishlarini amalga oshirishi uchun zarur bo`lgan maskan tushunchasida mujassamlashgan. Darhaqiqat, inson hamma joyda ham tirikchilik o`tkazishi mumkin. Biroq ota-onalar hoki-poyi qolgan, kindik qoni to`kilgan tuproqning muqaddasligi va xosiyati boshqacha. Shu chuqur insoniy xususiyat o`zining butun nozikligi bilan quyidagi maqolda in`ikos topgan: «Bulbul chamanni sevar, odam Vatanin». Ma`lumki, bulbul uchun chaman bo`lsa bas, o`z xonishin qilaveradi. U birgina chamanni o`ziga oshyon qilib olmaydi. O`zbekistonda sayrayotgan bulbulni Hindistondagi bir chamanzorga eltib qo`yilsa, u baribir sayrayverishi mumkin. Ammo inson-chi? U o`z Vatanini hech qachon ikkinchi bir mamlakatga almashtira olmaydi. Ha, Vatan ona kabi yagona, u bizning taqdirimiz. Uning yaxshiroq bittasiga almashtirib bo`lmaydi. Ana shuning uchun xalq ikkinchi bir maqolda «O`zga yurtning shohi bo`lguncha, o`z yurtning gadosi bo`l» deb ta`lim beradi.

Ona-Vatanning tinchligi va farovonligi haqidagi ideallar xalq maqollarida o`zining to`laqonli badiiy ifodasini topgan. Masalan, «Ona yurtning omon bo`lsa, rangi ro`ying somon bo`lmas», «Yurt qo`risang o`zarsan, qo`rimasang to`zarsan» kabi...

Xalq og`zaki ijodining boshqa janrlaridagi singari qo`rqoqlik, nomardlik, xoinlik, sotqinlik kabi tushunchalar maqollarda ham botirlik, mardlik, sadoqat fazilatlariga qarama-qarshi qo`yiladi. Masalan, «Botir bir marta o`ladi, qo`rqoq har qo`rqqanida», «Nomardga ishi tushmagan mardning qadrini bilmas», «Nomardning xotini bo`lguncha, mardning bevasi bo`l» singari maqollar fikrimiz dalilidir. Bunday maqollar kishini qahramonlikka, Vatanparvarlikka undaydi. Bu esa, xalq donishmandligining noyob fazilati bo`lib, xalqimiz uni

avloddan-avlodga singdirib, asrlar osha har bir shaxsda bu fazilatlarni kamol toptirib kelmoqda.

Vatan xaqidagi maqollar qanchalik ko`p bo`lmasin, xalq har doim o`z hayotiy tajribalaridan kelib chiqib, bu mavzuda yangidan yangi maqollar yarataveradi. Ular vositasida maktabda o`quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash zamonamiz pedagogikasi talablaridan biri hisoblanadi. Vatan va vatanparvarlik mavzularida yozilgan insholarda, turli tematik suhbatlarda, munozaralarda o`quvchilarni bu xil maqollardan foydalanishga o`rgatish kerak.

Demak, o`quvchi yoshlarda vatanparvarlik tuyg`ularini tarbiyalashda Vatan va vatanparvarlik haqidagi maqollarning o`ziga xos o`rni va vazifasi mavjuddir. Gap shundaki, bu xil maqollarda ifodalangan mazmuni jonli so`xbatlar vositasida yortish, obrazlarning ma`no tashish funksiyasini to`g`ri tushuntirish, bunda o`quvchilar tajribasiga tayanib ish ko`rish maqollarning g`oyaviy-estetik ta`sir kuchini oshiradi.

#### M e h n a t s e v a r l i k haqida maqollar

Xalq og`zaki ijodida mehnat va mehnatsevarlik mavzusiga ham katta o`rin berilgan. Bu mavzuni maqollar misolida olib ko`radigan bo`lsak, ularda mehnatsevarlik dangasalik va ishyoqmaslikka qarama-qarshi qo`yilib, mehnatkash inson, uning olijanob fazilati ulug`lanadi.

Bunday maqollarda xalq o`z boshidan kechirgan uzoq davrlik mehnat jarayonidagi tajribalarini umumlashtirib, uni ixcham shaklda, yuksak badiiylikda aks ettiradi. Masalan, «er haydasang kuz hayda, kuz haydamasang yuz hayda» makoli zaminida qanchadan qancha hikmat va tajriba mavjud. Makolda xalqning tuproqshunoslik, gidromelratsiya va agronomiya uzoq yillik tajribalari mujassamlashgan. Kuzda er haydalib, qishi bilan qor-yomg`ir tagida yotsa, uning dam olishi, tuproq qatlamiga qo`yilgan hashrotlar tuxumi sovuqda qirilib ketishi, yig`ishtirib olingan ekindan qolgan chiqindilar chirib, yanagi hosil uchun o`g`itga aylanishi kabi ko`pgina foydali jarayonlar hamda ularning dehqonchilik uchun zarur ekanligi bag`oyat tushunarli va ixcham tarzda bayon

etilgan. Bu maqol avloddan-avlodga o`tib, o`ziga xos saboq vazifasini bajarib kelmoqda.

Maqollarda anglatilmoqchi bo`lgan fiklar obrazli qilib ifodalanadi. Maqollarda dangasalik, bekorchilik, ishyoqmaslik, tekinxo`rlik kabi yaramas illatlar mehnatkash xalqqa qarama-qarshi qo`yilib, qattiq qoralanadi. Shuning uchun ham «Ishchi ishni topar», «Gap bilguncha ish bil», «Bekor turguncha bekor ishla», «Po`lat o`tda toblanadi, odam mehnatda», «Mehnatdan do`st ortar, g`iybatdan dushman», «Mehnat, mehnatning tagi rohat» singari maqollar yuzaga kelganki, ular xar bir shaxs takomilida eng zarur tarbiyaviy omil bo`lib hisoblanadi, desak sira mubolag`a bo`lmaydi.

Shunday maqollar boki, ular jamiyatning, xalq hayotining ustuvor shioriga aylanib qolgan. Masalan, «Ishlagan tishlaydi, ishlamagan kishnaydi» yoki «Qimirlagan qir oshar» maqollarida kishilik jamiyatining mehnat tiriklik manbai, ishyoqmaslik esa, har qanday kambag`allik va baxtsizlikning asosi ekanligi o`ta ta`sirchan tarzda ifodalanadi.

Mehnatkash xalq yoshlarni azaldan o`z orzu va ideallariga sadoqatli qilib tarbiyalashga harakat qilgan. Bunday tarbiya esa, og`zaki ijodning boshqa janrlari qatorida xalq maqollari, matallar va aforizmlar vositasida amalga oshirilgan. Mehnat mavzusidagi maqollar maktablarda, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar o`quvchi va talaba yoshlarining yozma ishlari, mehnat faxriylari va ota-onalar bilan uchrashuvlar, turli mavzudagi kechalarni o`tkazishda juda ta`sirchan bir vositalar sifatida ish berishi mumkin. Mehnatsevarlik mavzusidagi maqollar sinf rahbarlarining tarbiyaviy soatlari uchun ham asos qilib olinishi mumkin. Bunday darslarda o`qituvchi o`quvchilarda jamiyatimizda o`z halol mehnati tufayli dong taratgan, shon-shuhrat, moddiy manfaatdorlik topayotgan zamondoshlarga havas bilan qarashni, mehnat insoniyatning moddiy va ma`naviy boyliklarining asosi ekanligini sidqidildan e`tirof etishni o`quvchilar ongiga singdirishi lozim. Qisqasi boshqa mavzudagi maqollar singari mehnatsevarlik haqidagi maqollar



ham o`qituvchi va o`quvchilar leksikonida faol iboralarga aylantiriliishi lozim. Shundagina ushbu tarbiya vositasi o`zining to`la samarasini beradi.

#### Ahillik va hamjihatlik haqida maqollar

Mehnatkash xalq ijtimoiy taraqqiyotning barcha bosqichlarida tinchlik, kishilar o`rtasidja do`stlik, ahillik va hamjihatlik tarafdori bo`lgan. Chunki tinch, osoyishta sharoitda, do`stlik, ahillik va hamjihatlik asosidagi munosabatlar orqaligina baxtli turmushga, ideal orzularga erishish mumkin. Mana shunday ulug`vor g`oyalar, olijanobistaklar xalq maqollarida o`z aksini topgan. Bu xil masalalar maqollarda turli tarzda, jumladan birlashib mehnat qilish, birlashgan holda yovga, tabiat stixiyalariga qarshi kurashish, kishilarga to`g`ri yo`l ko`rsatish, ular boshiga kulfat tushganda hamdard bo`lib, dardiga malham bo`lish, ikkiyuzlamachilik, aldanchilik, g`ayirlik, umummanfaatidan o`z manfaatini ustun qo`yish – egoizm kabi insoniyat taraqqiyotiga yot illatlarni fosh qilish kabi shakllarda o`z ifodasini topadi. Masalan, «Ayrilganni ayiq er, bo`linganni bo`ri er», «Birlashgan o`zar, birlashmagan to`zar», «To`pdan chiqsang ham, ko`pdan chiqma» singari maqollar fikrimizning dalilidir.

Bunday maqollarda xalq o`z fikr-g`oyasining tinglovchi va tarbiyalanuvchilarga tezroq etib borishi va ularga tezroq ta`sir qilishi uchun kundalik haytda ko`p uchraydigan predmetlar obrazlaridan keng foydalanadi. Natijada ularning ta`sir kuchi oshadi, tushunuvchilar qamrovi kengayadi. «Baliq suv bilan, odam odam bilan tirik», «To`yar oshni ko`z taniydi, oshnani ko`ngil taniydi», «Yolg`iz otning changi chiqmas, changi chiqsa ham dong`i chiqmas» maqollarida ishtirok etayotgan obraz va detallar o`zining soddaligi, xalq hayotiga yaqinligi tufayli ular o`quvchi ko`ngliga tez va oson o`tiradi.

Do`stlik va hamjihatlik Olloh tomonidan insoniyatga berilgan ulug`ne`matdir. Shunday ekan, inson ushbu fazilatni qadrlashi, ulug`lashi lozim. Shundagina u ushbu hayotning sinov va imtihonlaridan eson-omon o`tadi. Inson og`ir kunda ham, quvonchli tantanada ham do`stga suyanadi. Bunday g`oyaning yaratuvchisi va sobitqadam targ`ibotchisi ijodkor xalqimizdir. Birgina maqollarning o`zida bu ulug` g`oya ming xil rangda tovlanadi. Quyidagi

maqollarga diqqat qiling: «Do`st do`stni kulfotda sinar, odam odamni mehnatda», «Bevafo do`stdan tayoq yaxshi, bebahra guldan yaproq», «Do`stsiz boshim, tuzsiz oshim».

Shuni ham aytish kerakki, xalq o`z maqollaridla kishilarni faqat do`stlikka undab, da`vat qilibgina qolmay, balki do`stlar o`rtasida ochiq to`g`ri so`zlilik, samimiyat bo`lishi kerakligini ham uqtiradi. Chunki kishilar orasida rostgo`ylik ishonch va samimiyat bo`lmas ekan, ularni zo`rlab do`stlashtirib bo`lmaydi. Shuning uchun ham ayrim maqollarda do`stlar orasidagi munosabat qanday bo`lishi lozimligi, ular o`zlarini do`st oldida qanday tutishi kerakligi muxtasar ravishda ifodalanadi. «Do`st achitib gapiradi, dushman kuldirib», «Do`st so`zini tashlama, tashlab boshing qashlama», «Hisobli do`st ayrilmas». Bunday maqollarning qimmatini shundaki, ularda xalq etikasi, odob va axloq me`yorlari ixcham bir ko`rinishda eks ettirilgan.

Bir qator maqollar borki, ularda qilinajak har bir ishni ahillik, hamjihatlik bilan maslahatlashib amalga oshirish g`oyasi ilgari suriladi. Ota-bobolarimiz donishmandligini, oddiy mehnatkashlarning istak-orzularini o`zida aks ettirgan xalq an`analaridan biri ham hamjihat bo`lib mehnat qilish turli ofat va balolarga qarshi birgalikda kurash bo`lgan. «Ko`kka boqma, ko`pga boq», «Ko`plagan yov qaytarar», «Ko`pdan quyon qochib qutilmas» kabi maqollarda ommaning kuch-qudrati uning birlashuvida ekanligi urg`ulanadi. Bu o`rinda shuni ham eslatib o`tish kerakki, xalq «ko`p» so`zini «jamoat», ya`ni jamiyatni tashkil qiluvchi kishilar ma`nosida ishlatadi. Mana shuning uchun ham xalq maqollaridagi «ko`p», «el» va «xalq» so`zlarini ushbu ma`noda tushunmoq kerak.

Yuqorida aytib o`tilganidek, ko`pchilik bo`lib ishlash foydali va unumli bo`lishini xalqimiz juda qadimdan anglab etishgan. Biroq u uyushmalar o`z xarakteri bilan bir tomonlama bo`lib, hozirgi hamjihatlikni to`la qamrab olmagan. Bir oila yoki qabilaning birlashib mehnat qilishi, ov ovlashi, faqat iqtisodiy manfaatlarnigina ko`zlar edi. Shunga qaramay ko`pchilik qilib harakat qilish samarali ekanligini xalq juda to`g`ri tushungan. Bu tushunchalarning

aksariyati maqollarda ham o'z aksini topgan. Masalan, «Ko'pchilik qayda bo'lsa, to'qchilik shunda», «Sheriklashganning yuragi sherday bo'ladi», «Ko'p og'iz bir bo'lsa, bir og'iz er bo'ladi» kabi maqollar kishilarni birlashishga davat etgan.

Xalqimiz ahillik va birlik, hamjihatlikni qanchalik alqab, maqtasa, ardoqlasa, xudbinlik, o'zibo'larmonlik, ayirmachilikni shunchalik qoralagan, yomonlagan. «Ko'p yomonlagan ko'milar», «Bo'linganni bo'ri er, ayrilganni ayiq er», «Ko'p yomonlagan ko'zsiz qolar» kabi maqollar fikrimizning dalilidir.

Ko'pchilikning qudrati va imkoniyatlarini ulug'lagan shunday maqollar yaratilganki, ular avloddan-avlodga o'tib, milliy qadriyatlarimizning ajralmas qismiga aylanib ulgiran. Masalan, «Ko'pchilik bir mushtdan ursa o'ldiradi, bir siqimdan bersa to'ydiradi», «Ko'pchilik biriksa tog'ni qulatar», «Xalq puflasa bo'ron bo'lar» singari hikmatlar mana shu xil asarlardan sanaladi.

Xalqning donolik xazinasi bitmas-tuganmasdir. Bu xazinani egallash, undagi ilg'or g'oyalarni o'zlashtirish va targ'ib etish har bir kishining, ayniqsa ziyolilarning muhim vazifasidir.

#### I l m va h u n a r haqida maqollar

Insoniyat qadim zamonlardan boshlaboq hayot kechirishni engillatish, o'ziga qulayroq sharoitlar yaratish uchun tabiat sirlarini bilishga, uning resurslaridan unumli foydalanishga intilganlar, shu maqsadda turli kasb va hunarlarni o'ylab topgan, ularni ni o'zlashtirishga, yosh avlodga o'rgatib borishga harakat qilgan. Mana shu urinish va intilishlar samarasi o'laroq ilm-fan yuzaga kelgan. Ibtidoiy davrlarda yaratilgan tosh qurollarning o'zi insoniyatning katta kashfiyoti edi. Bu kashfiyot shundayligicha to'xtab qolmadi, aksincha u jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq holda taraqqiy topdi. Oqibatda tosh quroldan kvant mexanikasi, komp'yuterlar va kosmik kemalargacha bo'lgan katta evolyutsion jarayonni inson o'z boshidan kechirdi. Mana shu jarayonda ijodkor xalq o'z maqsad va orzularini ifodalovchi ko'plab ertak, doston va maqollar yaratdi. Xalq maqollari esa o'ziga munosib o'rinbosar tayyorlaydiganinsonga eng yaxshi tarbiya vositasi sifatida xizmat qildi.

XI asrning qomusiy olimi Mahmud Qoshg`ariy o`zining «Devoni lug`otit turk» kitobida u yoki bu so`z izohi uchun ko`plab xalq maqollarini keltiradi. Bu maqollarning oraisda ilm va o`rganishga da`vat qiluvchilari talaygina. Darhaqiqat, ilm-fan, shuningdek, har qanday hunar inson amaliy ehtiyoji, tirikchiligi uchun zaruriy shartlardan biridir. Aks holda har qanday ilm va xunarning haqiqiy ma`nosi puch, rangsiz va be`ma`no bir narsaga aylanib qolgan bo`lardir. Mana shuning uchun ham juda qadim zamonlardan boshlab har bir shaxsni ilm olishga, hunar egallashga turli vositalar orqali da`vat etishga e`tibor qaratilgan. Mahmud Qoshg`ariy asaridagi «Qut bilgusi - bilig» (Bilim baxt belgisidir) maqoli garchi uzoq davrlarga borib taqalsa ham, biroq o`zining chuqur mazmuni jihatidan hozirgi xalq orasidagi maqollarda farq qilmaydi. Xalq maqollari davr o`tishi bilan takomillasha boradi, mazmunan boyiydi, yangi variantlar hosil qiladi.

Ilm-hunar haqidagi maqollarda ilmli, hunarli kishilarning fazilatlari, ularning hayotda hamisha zarur kishilar xisoblanishlari va turli muammolarni oson hal qila olishlari ta`kidlanadi. Masalan, «Bilim – baxt keltirar», «Oltin erda qolsa ham bilimli erda qolmas», «Hunar, hunardan unar» va shu kabilar...

Bu xil maqollarning ba`zilarida ilmli, hunarli kishilarning fazilati, qudrati johil, hunarsiz va dangasa kishilarga qarama-qarshi qo`yiladi. Bunday kontrast usul maqollarning tarbiyaviy ahamiyatini, ta`sir kuchini oshiradi. Hunar egalari hurmat tuyg`usinigina tarbiyalab qo`ymay, hunari yuq kishilarga, tanbal va dangasalarga qarshi tanqidiy ruhni ham shakllantiradi. Masalan, «Hunari yo`q kishining mazasi yo`q ishining», «Bilagi zo`r birni yiqitadi, bilimi zo`r mingni», «Bilgan o`qir, bilmagan to`qir», «Qunt bilan o`rgan hunar, hunardan rizqing unar», «Ilmli ming yashar, ilmsiz bir yashar» va hakoza...

Ilm-hunar insoniyat uchun hamisha katta ahamiyat kasb etib kelgan va shunday bo`lib qoladi. Shunday ekan yosh avlodni ilmga chanqoq, hunarga mushtoq jamiyatimizning a`zosi qilib tarbiyalashda bu temadagi xalq maqollarining o`rni va roli katta ekanligini unutmasligimiz, ushbu tarbiya vositasidan unumli foydalanishimiz darkor.

## Oila, qarindosh - urug`lik haqida maqollar

Oila va qarindosh-urug` haqidagi maqollarga diqqat bilan razm solsak, bu mavzuga har bir ijtimoiy tuzum o`z tamg`asini bosganligini ko`rishimiz mumkin. Haqiqatan ham masalalarni har bir ijtimoiy tuzum o`sha davr mafkurasi nuqtai nazaridan hal qilganga o`xshaydi.

Qarama-qarshiliklar asosiga qurilgan jamiyatning asosiy illati tengsizlik, kishining kishi tomonidan ezilishi, maishiy hayotdagi kechkin farqlar bilan belgilanar ekan, bu narsa eng avvalo jamiyatning eng kichik juz`i, yacheykasi – oilada o`z aksini topmasligi mumkin emas edi. Ilgari yaratilgan maqollarning ko`pchiligida oilaga boshqacha nazar bilan qaralganligining sababi mana shunda. Biroq xalq ideali o`sha davrda ham oilaga muqaddas bir narsa sifatida munosabatda bo`lishni, er-xotin orasidagi samimiy munosabatlar oila tinchligining muhim sharti sifatida targ`ib qilingan. «Boqmasang moling ketar, xo`rlasang xotining ketar», «Janjalli uyda barakaga o`rin yo`q», «Totuv turmush – uzoq umr», «Uyda rohati yo`qning ko`chada farog`ati yo`q» kabi maqollar xalq tajribasidan kelib chiqqan ibratomuz pand-nasihatlardir. Ayollarning oiladagi o`rni haqida ham bir qancha maqollar yaratilganki, ularda ham xalq idealining ayollarga bo`lgan e`tibori sezilib turadi. Masalan, «Erni er qiladigan xam xotin, qaro er qiladigan ham xotin», «Xotinli ro`zg`or guldir, xotinsiz ro`zg`or cho`ldir», «Eru xotin qo`sh ho`kiz» kabi maqollarda eru xotinning oiladagi o`rni .irday ekanligi, hatto uyni saronjom-sarishta tutishdagi o`rni ernikidan ham ulug`roq ekanligi ta`kidlanadi.

Xalq hayotning bevosita davomchisi, farzandlarga doimo e`tiborda bo`lib, oilada o`larning o`rni boshqachaligini uqtirgan, serfarzand oilalarni alqagan, e`zozlagan. «Bolali uy – bozor, bolasiz uy - mozor», «Bolalik uy xandon, bolasiz uy zindon», «O`g`il-qizing davlating», «O`nta bo`lsa o`rni boshqa, qitqta bo`lsa qilig`i boshqa» kabi maqollar fikrimizning dalili bo`la oladi. Ularda bola ota va ona orasini bog`lab turuvchi mustahkam bir rishta ekanligi, oila baxti ular bilan, ya`ni bolalarning borligi bilan ekanligi e`tirof etiladi. Shu bilan birga farzandlarning oat-onaga g`amxo`rlik qilishi, ular qarigan chog`larida bellariga

darmon, ko`zlariga nur bo`lishlari qayta-qayta ta`kidlanadi. Masalan, «Qobil o`g`il ot mindirar, noqobil o`g`il otdan indirar», «Farzand belning quvvati», «Bolaginamning bolasi – qandak o`rin donasi» va hakoza...

Bu mavzudagi ayrim maqollarda ota-onalarining qadrlarini bilmaydigan noqobil bolalar xaqida ham nodir fikrlar bor. Ularni o`rganish va bilish hamma vaqt ham foyda beradi. «Onaning ko`ngli bolada, bolaning ko`ngli daladi», «Men kuyarman bolamga, bolam kuyar bolasiga», «Ota bo`lmay otang qadrin bilmassan» kabi maqollar mana shu maqsadda yaratilgan, desak sira yanglishmagan bo`lamiz.

Xalq oilada ayol kishining rolini qay darajada baholamasin, maqollarda yomon xotinlar borligi ham inkor etilmaydi. O`ziga xos donishmandlik qomusi sanalgan maqollarda bu haqda ham muhim fikrlar bayoyon qilingan. Masalan, «Yaxshi xotin ishlik bo`lar, yomon xotin tillik bo`lar», «Yaxshi xotin – uy ziynati, yomon xotin – to`y ziynati», «Yaxshi xotin – uy egasi, yomon xotin – yo`l egasi» va hakoza ...

Oilaning mustahkam asosga qurilishi uchun ilgariyan yaxshi zamin hozirlanishi, quda bo`ladigan tomonlar bir-birlarini yaxshi bilib olishlari, oila uchun turmush o`rtog`i tanlashda shoshilmaslik lozimligi kabi masalalar xalq maqollarining aksariyatida ta`kidlaniladi. Masalan, «Onasi maqtagan qizni olma, el maqtagan qizdan qolma», «Tengini topsang tekin ber», «Ot olsang minib ol, xotin olsang ko`rib ol», «Sherikchilik bir yillik, qudalik ming yillik», «Quda bo`lguncha ko`p sinash, quda bo`lgach ko`p siylash» singari maqollar fikrimizga dalil bo`la oladi.

O`zbek oilalarida bola va kelin ota-onalari oldida burchdor sanaladi. Ya`ni keksaygan pallalarida ularning og`iri engil qilib, xizmatda bo`lishlari talab qilinadi. Demak, qaynona va kelin orasidagi munosabat oila totuvligida doimo muayyan darajada vazifa bajaradi. Xalq maqollarida ushbu masala ham o`ziga xos tarzda ifoda topgan. Xalq o`z maqollari orqali zolim qaynona va andishasiz kelinlarni qoralaydi. Qaynonalardan kelinlar o`z qizlaridek e`zozlashni, kelinlardan qaynonani hurmat-izzat qilishni talab qiladi. Masalan, «Qaynonali

kelin – qarqara kelin, qaynonasiz kelin – masxara kelin» maqolida qaynonali kelin uydagi mayda-chuyda muammolarga bosh og`ritmay bemalol qaraqaradek kerilib yura olishi, o`ziga aro berishiga vaqt topa bilishi uqtilirib, qaynonasizlikning murakkab vaziyat ekanligi ta`kidlanadi.

#### T o` g` r i l i k va r o s t g o` y l i k haqida maqollar

Xalq maqollari ayrim kishilarga xos yaramas illatlarni qoralab, to`g`rilik rostgo`ylik singari fazilatlarini ulug`laydi. Xalq maqollariga xos bu xususiyat hamma davrlar va hamma xalqlar uchun xam mushtarakdir. Shuning uchun xam maqollardagi bu olijanob, va umrboqiy xususiyatlar yosh avlodni tarbiyalashda muhim manba, vosita sanaladi.

Yolg`onchilik qilib siri fosh bo`lgan kishilarga tanbeh berishda ham, badiiy adabiyotdagi u yoki bu obrazlar nutqida ham to`g`rilik va rostgo`ylik haqidagi maqollar didaktik vosita vazifasini o`taydi. «Betga aytganning zahri yo`q» maqolini olib ko`raylik. Bu maqollar nutqimizda faol ishlatiladi. Bu maqolda xalq idealining ifodasini sezish qiyin emas. Unda ayrim ig`vogar, o`zgalar yutug`ini ko`ra olmaydigan, baxil kishilarga nisbatan nafrat, rostgo`y kishilarga nisbatan samimiyat borligini ko`rish mumkin. Chunki insonning pokligi, ko`nglining musaffoligi hamma vaqt to`g`ri so`zlikni talab etadi. Masalan, «Dili to`g`rining tili to`g`ri», «Egri ozadi, to`g`ri o`zadi», «Haqiqat egilsa ham sinmaydi», «O`zi to`g`rining so`zi to`g`ri» maqollari shunday maqsadga qaratilgandir.

Bu maqollar uzoq yillarning tajriba mahsuli ekanligi, ularning inson ichki dunyosini chuqur, ammo sodda bir shaklda osib berishida ko`rinadi. To`g`ri so`zlashga o`rgangan shaxs hech qachon, hech qaerda yolg`on gapirmaydi. Chunki «Tarki odat amri mahol» deganlaridek, to`g`rilikni o`zining odatiga aylantirgan o`z odatiga xilof ish tutmaydi. Shuning uchun ham maqolda «O`zi to`g`rining so`zi to`g`ri» deb hukm chiqarilgan. Kishilarning qilgan ishlarini, gapirayotgan gaplarini kuzatish bu xil maqollarning yaratilishiga asos bo`lgan.

Maqollarning matbuot, darsliklar va badiiy adabiyot namunalariida keltirilishi, alohida kitob holida chop etilishi, kishilar tomonidan kundalik

nutqda foydalanilishi ularning tarbiyaviy ahamiyatini yanada oshiradi. Shu bilan birga yana bir muhim vosita borki, u yoshlar xarakteriga to'g'rilik, rostgo'ylik kabi fazilatlarni singdirib borishda muhim o'rin tutadi. Bu vosita xalqimiz uchun ta'lim va tarbiya o'chog'i sanalgan maktabdir. O'qituvchi har hodisa va voqeani ob'ektiv baholashi, o'quvchilarga tushuntirishi jarayonida xalq maqollaridan o'rinli va unumli foydalanishi zarur. Chunki maktab o'quvchilari hali kamolga etmagan bo'lib, ularda ijobiy xislatlarning tarkib topishi va shakllanishi ancha mahsuldor bo'ladi.

Xalq o'zining to'g'rilik va rostgo'ylik haqidagi qarashlarini ertaklar, masallar, orqali birmuncha keng bayon qilsa, maqollarda esa, sodda, lo'nda hukm tarzida ifoda etadi. Alisher Navoiyning «Sab' ai sayyor» dostonidagi «Muqbil va Mudbir» hikoyatida yolg'on, soxta tabiatli Mudbirni o'lim bilan jazolasa, to'g'ri va rostgo'y Muqbilni ulug'laydi. Maktabda bu hikoyat o'tilar ekan, o'qituvchi o'z hikoyasida o'z g'oyasiga monand, asar mazmunini to'ldiruvchi «To'g'ri eydi oshini, egri eydi boshini», «Egri o'tirsang ham to'g'ri so'zla», «Egri ko'chaadan yursang ham to'g'ri yur» kabi maqollarni keltirishi, bunda o'quvchilarni ham jalb qilib, ular bilan hamkorlikni esdan chiqarmasligi darkor.

Mamlakatimiz mustaqilligidan keyin ta'lim-tarbiya muassasalari oldiga yosh avlodni milliy qadriyatlar asosida komil inson qilib tarbiyalash masalasi ko'ndalang qo'yildi. Mazkur masala ko'ptarmoqli muammo bo'lib, uni hal qilishda adabiyot saboqlari, xususan, mashg'ulotlarda xalq maqollaridan o'rinli foydalanish o'qituvchi va tarbiyachilarga eng qulay vosita sifatida yordam beradi deyishimizga to'la asos bor.



## 2.2. Maqollar mavzusini o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari

Xalq maqollari o'zining ixchamligi, to'la qofiyaliligi, hayotiyliги bilan kishilar nutqini bezaydi va o'zining donolik xazinasi bilan inson ongini, estetik tushunchasini boyitadi, uni haqiqiy insoniy fazilatlar asosida tarbiyalaydi.

Maqollarning bu xislatlarini, ayniqsa, ularning tarbiyaviy ahamiyatini yaxshi tushungan yozuvchilarimiz o'z ijodlarida xalq maqollaridan keng foydalanganlar. Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Lutfiy, Navoiy, Bobur, Gulxaniy, Hamza, Oybek, A.Qahhor, G'.G'ulom, M.Shayxzoda, O'.Umarbekov, S.Ahmad, Tog'ay Murod, E.Azamov kabi yozuvchi va shoirlar ijodini xalq maqollari va matallarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

O'zbek realistik prozasining buyuk vakillari Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, A.Qahhor va Oybek singari yozuvchilar ijod sirlarini ko'proq xalqdan o'rganganliklarini qayta-qayta ta'kidlaganlar.<sup>5</sup>

Badiiy asarda maqollardan, ibratli gaplardan foydalanish birinchidan, asarning ifoda kuchi va realistik qudratini oshirsa, ikkinchidan, fikrning obrazli bayon qilinishini ta'minlaydi. Shuning uchun ham buyuk so'z san'atkorlari xalq maqollari va matallariga katta e'tibor bilan qarashadilar.

Maqollar yoshlarning, xususan, maktab o'quvchilarining nutqini o'stirishda, ularni xalq donishmandligi durdonalari bilan tanishtirishda hamda ularda xalqchil hislatlarni tarbiyalashda katta ahamiyatga egadir. O'quvchilar boshlang'ich sinflardan boshlab maqollar bilan tanishadilar. O'qituvchi ularga maqollarda ifodalangan ko'chma ma'nolarni tushuntiradi. Keyinroq ularning o'zlari ham sinfda o'rgangan maqollariga yaqin maqol va hikmatlarni otalaridan, o'qigan kitoblaridan to'plashga intiladilar.

Adabiyot darslarida xalq maqollari ustida ishlash o'qituvchining doimo diqqat markazida turishi kerak. 4-5-sinflarda maqollarni o'rganish uchun maxsus darslar tashkil etiladi. Yuqori sinflarda esa maqollar badiiy asar tili va

---

<sup>5</sup> Bu haqda qarang: Qodiriy H. Otam haqida. Adabiyot va sanat nashriyoti, T., 1987; O.Sharafiddinov. Cho'lponni anglash. T., «O'qituvchi», 1996; A.Qahhor. Yoshlar bilan suhbat. T., 1966.

yozuvchi mahoratini o'rganishning muhim manbasi sifatida chuqur o'rganiladi. Shuning uchun ham adabiyot o'qituvchisi maqollarning mohiyatini, uning janr xususiyatlari bilan bog'liq nazariy bilimlarni egallagan bo'lishi talab qilinadi.

Insoniyat asrlar osha o'zining yuksak estetik ideallarini o'zi yaratgan san'at asarlari orqali avlod-dan-avlodga o'tkazib, har bir shaxsda uni shakllantirishga, kamol toptirishga intilib kelmoqda. Binobarin, estetik ideal insonda vatanparvarlik, mehnatsevarlik, odob, rostgo'ylik, halollik, kamtarlik, do'stlik, mardlik, donolik, andishalilik kabi fazilatlarining mujassamlashganligini taqozo etadi. Shu nuqtai nazardan qarajak, maqollar xalqning butun estetik idealini qisqa, siqiq ifodalovchi qomusga o'xshab ketadi. Bu maqollar esa xalq nutqida har kuni ko'plab qo'llaniladi va shu orqali xalq tarbiyasining oddiy, ammo sarmahsul jarayoni davom etaveradi.

Yuqorida takidlanganidek, har bir maqol xalqning o'z boshidan kechirgan tajribalari asosida yuzaga kelganligi tufayli uning tematik doirasi benihoya kengdir. Chunki hayotning har bir qirrasini yo'qki, u xalq maqollarida aks etmagan bo'lsin. Muhabbat va nafrat, to'g'rilik va egrilik, sadoqat va sotqinlik, mehnatkashlik va tekinxo'rlik, adolat va zulmkorlik, odob va beodoblik, xullas, xalq hayotining barcha jabhalari, insonga xos bo'lgan fazilat-u illatlar hammasi xalq maqollarida o'z ifodasini topadi. Shuning uchun ham xalq maqollarining tarbiyaviy ahamiyati, ta'sir doirasi xalq og'zaki ijodining boshqa janrlariga nisbatan kengroqdir.

Xalq maqollari tabiati, janr xususiyatlari, ularning badiiy asar tarkibidagi vazifalari haqida talaygina tadqiqot ishlari olib borilgan. Biroq ularning yoshlar tarbiyasidagi o'rni va roli, ulardan maktabda, xususan, adabiyot saboqlarida qanday foydalanish, qo'llanishning samarador usullari borasida juda kam o'rganilgan. Xalq idealidagi komil inson donolik, kamtarinlik, mehnatsevarlik, ma'naviy barkamollik, xalqparvarlik, vatanparvarlik, mardlik va saxiylik xislatlariga ega bo'lish kerak. Ularni shakllantirish uchun xalq o'z ijodi orqali yosh avlodga o'git, nasihat qilib boradi. Xalq maqollari xalq pedagogikasining

muhim tarmog'i va quoli sanaladi, Ayniqsa, axloqiy tarbiya mavzusidagi maqollar xalq donishmandligi xazinasining katta bir qismini tashkil etadi.

Maqolga «O'zbekiston Milliy entsiklopediyasi»da quyidagicha ta'rif beriladi: «Maqol – xalq og'zaki ijodi janri; qisqa va lo'nda, obrazli, grammatik va mantiqiy tugal manoli, hikmatli ibora, chuqur mazmunli gap. Muayyan ritmik shaklga ega».<sup>6</sup>

«Maqol – turmush tajribalari zaminida tug'ilgan va xalq donoligini ifodalagan qisqa, ko'pincha she'riy shakldagi hikmatli so'zlar, chuqur ma'noli iboralar», - deb ta'kidlanadi yana bir manbada.<sup>7</sup>

Yana bir kitobda maqol janrining quyidagi belgilari uqtiriladi: «Qisqa, chuqur ma'noli, nutqda keng qo'llanuvchi barqaror shaklga ega folklor janrlaridan biri bo'lib, ular xalqning ko'p asrlik tajribalari asosida yuzaga kelgan. Maqol o'z tabiatiga ko'ra, nutqda ko'chma yoki o'z ma'nosida qo'llaniladi, ya'ni ayrim maqollar faqat ko'chma ma'noda («Qarg'a qarg'aning ko'zini cho'qimaydi», «Quruq qoshiq og'iz yirtar»), ba'zan o'z ma'nosida («Ona yurtning omon bo'lsa, rangi-ro'ying somon bo'lmas») ishlatiladi.»<sup>8</sup>

Taniqli folklorshunos M.Afzalov: «Maqollar o'zining tuzilishi jihatidan qisqa, lo'nda, puxta, mantiqli va fikran tugallangan va siqiq ishlangan bo'ladi. Maqollarda hayotiy tajribalar natijasida kelib chiqqan qimmatli fikrlarning xulosasi ifodalanadi. Maqollar ko'pincha poetik formaga ega bo'ladi. Ular o'zining ixcham, pishiq va puxta ishlanganligi bilan xalq og'zaki ijodining boshqa turlaridan farq qiladi»,<sup>9</sup> - deya ta'kidlaydi.

Maqollar chuqur va mukammal mazmunga ega bo'lib, ularda xalqning donoligi, milliy an'analari, uzoq asrlik hayotiy tajribalari mujassamlashadi.

Folklor asarlarining hamma janrlari kabi maqollarda ham xalqning orzu-umidlari, vatanparvarlik, insonparvarlik xislatlari, xullasi, barcha ijobiy

---

<sup>6</sup> O'zbekiston Milliy entsiklopediyasi. 5-jild, Oz.ME nashriyoti, T., 2003, 543-bet

<sup>7</sup> Homidiy va boshqalar. Adabiyotshunoslik terminlari lug'ati. «O'qituvchi», T., 1970, 106-bet

<sup>8</sup> Xotamov N., Sarimsoqov B. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o'zbekcha izoh'li lug'ati. T., «O'qituvchi», 1983, 253- 254-betlar

<sup>9</sup> Afzalov M. O'zbek xalq maqollari haqida.//O'zbek xalq maqollari. Adabiyot va sanat nashriyoti, T., 1978, 6-bet

fazilatlarini aks etgan bo'ladi. Shu sababdan ham ularning ijtimoiy-siyosiy va axloqiy-tarbiyaviy ahamiyati g'oyat ulkandir.

Hikmat ilmining darg'alari sifatida dunyoga dong taratgan eldoshlarimiz Abu Nosir Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniylardan tortib zamondosh allamolargacha xalq maqollariga juda katta e'tibor bilan qaraganlar, o'z asarlari va nutqlarini maqollar bilan bezashga harakat qilganlar.

Haqiqatan ham, maqollar, matallar, aforizmlar kishilarning, ayniqsa yoshlarning ongini o'stiradi, ularning to'g'ri, rostgo'y, mehnatsevar va mard, jasur, sabot-matonatli bo'lib yetishishiga ijobiy ta'sir qiladi. Shuningdek, yozuvchilar, shoirlar va notiqning so'z boyligini oshiradi, ta'sirchanligini ta'minlaydi.

Turmushning barcha sohasida: mehnat jarayonida, jonli suhbatlarda, yozma adabiyotlarimizda maqol va hikmatli iboralar juda ko'plab qo'llaniladi. Ular orqali anglatilmoqchi bo'lgan fikrlar obrazli qilib ifodalanadi. Shuning uchun ham xalqimiz «So'zning ko'rki maqol», «Yaxshi naql – tomiri aql», «Otalar so'zi – aqlning ko'zi» deb bekorga ta'kidlamagan.

Buyuk shoir A.S.Pushkin rus xalq maqollarini ko'zdan kechirarkan, ularning mazmundorligi va badiiyatiga qoyil qoladi. O'zi ham ulardan g'oyat ustalik bilan foydalanadi va: «Har bir maqolimiz qanchalik ma'noli! Oltin deysiz, oltin! Ularni ijod etish oson gap emas, aslo!»-deydi.<sup>10</sup>

Shuning uchun ham mumtoz yozuvchilarimiz, shoirlarimiz xalq ijodiga, ayniqsa, maqollarga ko'proq murojaat etganlar va ulardan barakali foydalanganlar.

Maqollar hayotiy voqelikning mohiyatini, ibratli fikrni ixcham ifodalagani sababli bu xususiyat ularning poetik tuzilishida yaqqol aks etadi. Maqollar shaklan ikki xil bo'ladi:

a) nasriy maqollar: «Oltin o'tda bilinar, odam meh'natda» kabi;

b) shery maqollar:

Elga bersang oshingni,

---

<sup>10</sup> Qarang: «Pushkin v vospominaniyax sovremennikov». L., 1980, 455-str.

Erlar silar boshingni,  
Itga bersang oshingni,  
Itlar g'ajir boshingni.

Maqollarni yaratilishi jihatdan ham ikkiga ajratish mumkin:

a) xalqning ko'p yillik ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy tajribalari, kuzatishlari natijasida hosil bo'lgan maqollar («Er h'aydasang kuz hayda, kuz haydamasang yuz hayda») kabi;

b) u yoki bu shoir yoxud yozuvchilar ijodidagi ibratli fikrlarning xalq orasida keng tarqalishi va ommalashishi asosida yuzaga kelgan maqollar («Bilmaganin so'rab o'rgangan olim, orlanib so'ramagan o'ziga zolim») singari.

Darhaqiqat maqollar o'z shaklining siqirligi uchun ham o'quvchi yoki eshituvchi tomonidan oson o'zlashtiriladi, uning xotirasida uzoq vaqt saqlanib, zarur o'rinda o'zi ham foydalanish imkonini beradi. Maqollarga xos bo'lgan she'riy shakl va ritm ularning ifodaviyligi va ta'sirchanligini yana bir karra oshiradi. Yod olinishini yengillashtiradi.

Xalq idealida kamtarin inson eng go'zal insondir. Ko'p gapirish, maqtanchoqlik kamtarinlikka qarama-qarshi bo'lgan hislat sanaladi. Mana shuning uchun hamma vaqt kamtarinlik olqishlanadi. Maqtanchoqlik va manmanlik, kiborlik hamma vaqt qoralanadi. «Kamtarga kamol, manmanga zavol», «Sen o'zingni maqtama, seni birovlar maqtasin», «Maqtanma g'oz, hunaring oz» kabi maqollarda xuddi mana shu g'oya ilgari suriladi. Ular zamirida ulug' maqsad sari intilish yotadi. U ham bo'lsa kamtarin, boshqalarni hurmat qiladigan, ularga hamdard va tayanch bo'la oladigan boodob insonni tarbiyalash g'oyasidir. Maqollarda maqtanchoqlik va kamtarinlik qarama-qarshi qo'yilib, aksariyat holda ular antiteza hodisasi sifatida taassurot qoldiradi.

O'zbek xalqi yuksak axloqiy normalarga asrlar osha to'xtovsiz amal qilib kelgan va ayni paytda ham amal qilmoqda. «Salom ham farz, alik ham», «Bir kun tuz ichgan joyga qirq kun salom ber», «Qaytib kelar eshigingni qattiq yopma» maqollari xalqning mana shu xil fazilatlarini ko'rsatadi. Xalq orasida, qilig'i sovuq, baxil odamlar doimo uchrab turadi. Xalq maqollarida bunday

kishilar ayovsiz fosh etiladi. Masalan, «Tuyadek bo'y berguncha tugmadek o'y bersin», «O'zi yuzsizning so'zi tuzsiz», «Baxilning bog'i ko'karmas, ko'karsa ham meva bermas» kabi maqollar kishilar xarakterining u yoki bu jihatlarini uzoq yillar kuzatish natijasida hosil bo'lgan xulosalar singari yangraydi. Ular zamiridagi ma'noni uqish va amal qilish, hayotda ulardan dasturilamal sifatida foydalanish kishida yaxshi axloqiy sifatlarning shakllanishida muhim bir vosita, bitmas-tuganmas chashmadir.

Axloqiy tarbiya birinchi navbatda o'z tarkibiga til odobini oladi. Chunki kishilar orasidagi xushmuomalalik, tavoze, andishalilik, o'ylab gapirish kabi fazilatlar donolikning asl nishonasidir. Yusuf Xos Hojibning «Qutal'g'u bilig», Ahmad Yugnakiyning «Hibatul haqoyiq», Sa'diyning «Guliston», A.Navoiyning «Hayrat ul-abror», «Mahbub ul-qulub» kabi asarlarida til odobiga katta etibor berilgan. Shuningdek, xalq pedagogikasining asosiy talablaridan biri ham til odobidir. «Qo'l yugirigi oshga, til yugirigi boshga», «Ming eshitib bir so'yla», «Suvning onasi – buloq, so'zning onasi - quloq» singari maqollarda boshqalar gapirganda tinglash, ularning so'zini bo'lmaslik, ko'proq tinglab, ozroq so'zlash lozimligi uqtiriladi. Chunki suhbatdosh yoki davradosh biror kishi gapirayotganda quloq osmaslik, boshqa ishlar bilan shug'ullanib o'tirish, gapiruvchining so'zlariga loqayd qarash va pisand qilmaslik odobsizlik hisoblanadi. Shuni ham aytib o'tish kerakki, tilim bor deb har qanday gapni gapiraverishlik noto'g'riligi xalq maqollarining juda ko'pchiligida ta'kidlangan. «Oyoq osh keltirar, og'iz tosh», «Og'iz bir, quloq ikki, bir so'zlab tingla qirq ikki» kabi maqollar shular jumlasidandir. Xalqning til odobi masalasiga katta e'tibor berishining sababi bor. Til shunday bir vositaki, u bilan qirq yillik dardga malham topish ham mumkin, shuningdek, beg'ubor qalbga shunday jarohat solish mumkinki. Uni umrbod davolab bo'lmaydi. Oilada, maktabda, ishxonada, do'stlar davrasida, jamoat orasida shirinso'z bo'lish, yuz o'ylab bir so'zlash kishining o'zi uchun ham, o'zgalar uchun ham foydalidir. Xalq maqollari, ularning donishmandona dahosi ham kishilarga til odobining uqtirilishidir.

Masalan, «Tig' yarasi tuzalar, til yarasi tuzalmas», «Gap bilguncha ish bil», «Tilingni shotir qilguncha o'zingni botir qil» va hakoza...

Kattalarga hurmat, kichiklarga shafqat va izzat ko'rsatish sharq xalqlari pedagogikasida oliy tamoyillardan sanaladi. Shuning uchun xam bu fazilatlarini ulug'lovchi va targ'ib qiluvchi maqollar xalq orasida juda ham keng tarqalgan. Ularda kattalarni hurmat qilish, kishi o'z o'rnini bilishi, kishining mansabi yoki boyligiga qarab emas, balki yoshiga qarab muomala qilish kerakligi uqtiriladi. Shu bilan birga maqollarda o'zidan kichiklarning ham gapiga bee'tibor bo'lmaslik, har kimga o'ziga yarasha muomala va xizmat qilish lozimligi qayd qilinadi. Masalan, «Kichiklarning kattasi bo'lg'uncha, kattalarning kichigi bo'l», «Qari kelsa oshga, yosh kelsa ishga» singari maqollardagi mazmun xalqimiz orasida shunday amaliy, hayotiy ehtiyojga aylanganki, ularsiz xalq pedagogikasini tasavvur etib bo'lmaydi.

Xalq maqollarida kishining odobli bo'lishi uchun uni yoshligidan boshlab tarbiya qilish kerak degan fikr ilgari suriladi. Jumladan «Bolani boshdan, niholni yoshdan», «Bolani yoshdan o'rgat, xotinni boshdan o'rgat», «Bola aziz, odobu undan ham aziz» kabi maqollar fikrimizning yaqqol dalilidir.

O'zbek xalq maqollari eng qadimgi zamonlardan beri xalq orasida aytilib, puxtalanib, avloddan-avlodga eng yaxshi ma'naviy meros sifatida o'tib kelmoqda. Masalan, XI asrning buyuk filolog olimi Mahmud ibn Husayn ibn Muhammad Qoshg'ariy o'zining «Devoni lug'ot ut-turk» nomli yirik asarida qadimiy urug' va qabilalar orasida keng tarqalgan maqollar juda ko'plab namunalar keltiradi. Bu maqollarning bir-nechasi hatto hozirgi kunda ham xalqimiz tomonidan faol qo'llanilmoqda. Masalan:

Devonda: «Kishi olasi ichtin,  
Yilqi olasi toshtin».

Hozirda: «Odam olasi ichida,  
Mol olasi tashida».

Devonda: «Osh totug'i - tuz».

Hozirda: «Osh totig'i tuz bilan».

Maqol va aforizmlar yozma adabiyot vakillarining ijodida doimo katta va muhim o'rin tutib kelgan. Mumtoz adabiyotimiz vakillaridan Sakkokiy, Otoy, Lutfiy va boshqa shoirlar o'z asarlarining xalqchilligi uchun kurashganlar va xalqqa tushunilishi oson bo'lsin deb xalq ijodidan samarali foydalanganlar.

Ulug' Alisher Navoiy o'zining «Xamsa», «Mahbub ul-qulub», «Xazoyinul ma'oni», «Lison ut tayr», singari asarlarida juda ko'p xalq maqollari va hikmatlarini ishlatadiki, bu narsa ushbu asarlarning badiiy saviyasining yuksakligini ta'minlagan.

Navoiy maqol va hikmatli so'zlarni qayta ishlab, ularni g'oyaviy-badiiy jihatdan yuksak darajaga ko'taradi. Bunda maqol va hikmatli so'zlar sayqallashadi, badiiy jihatdan go'zal namunaga aylanadi:

Agar arpa ham sochsa bo'lmoqqa to'q,

Anga bug'doy o'rmoqni imkoni yo'q.

Bu o'rinda Alisher Navoiy xalq orasida keng tarqalgan «Nima eksang shuni o'rasan» maqolini qayta ishlab, badiiy jihatdan barkamol misralar yaratgan. Buyuk shoirning xuddi mana shu misralari ta'sirida xalq orasida mashhur keltirilgan maqol paydo bo'lganligi ham ehtimoldan uzoq emas.

Navoiydan keyin yashab ijod etgan Bobur, Muhammad Solih, Turdi, Maxmur, Nodira, Mahzuna, Uvaysiy kabi shoirlarimiz ham o'z asarlarida maqol va hikmatli so'zlardan unumli va o'rinli foydalanganlar.

XYIII asrning oxiri va XIX asrning boshlarida yashab ijod qilgan o'zbek masalchisi va shoir Muhammadsharif Gulxaniy o'z masallarining hajviy kuchini oshirish, xalq hayoti bilan bog'lash va badiiy jihatdan yanada puxtalash maqsadida xalq ijodidan, xususan, maqollardan samarali foydalangan. «Zarbulmasal» badiiyati va ta'sir kuchining kattaligida xalq maqollarining vazifadorligi inkor qilib bo'lmas darajada sezilib turibdi.

Muqimiy, Furqat, Zavqiy va Avaz O'tar o'g'li kabi shoirlarimiz ham o'z asarlarida xalq ijodining go'zal namunalarini keng istifoda qilganlar.

Maqollarda so'zlar ko'pincha ko'chma ma'noda bo'ladi. Ularni o'z ma'nosida tushunsak, kutilgan ma'no chiqmaydi. Masalan, “Yer haydasang,



kuz hayda, kuz haydamasang, yuz hayda” maqolidagi soʻzlar oʻz maʼnosida qoʻllangan. Lekin “Qazisan, qartasan, axir aslingga tortasan”, “Olmaning tagiga olma tushadi”, “Qargʻa qargʻaning koʻzini choʻqimaydi” kabi maʼno jihatidan bir-biriga juda yaqin boʻlgan maqollarda soʻzlar **oʻz asl maʼnosida emas**. Ularda gap aslida “qazi-qarta”, “olma”, “qargʻa” haqida emas, odam va uning feʼl-atvori haqida. Shuning uchun ham koʻchma maʼnoda ishlatilmoqda deymiz. Shunday maqollar borki, oʻquvchini vatanining tarixi va ajdodlar merosi bilan yaqindan tanishtiradi: “Ona yurtning omon boʻlsa, rangi roʻying somon boʻlmas”. Bu soʻzlar zamirida vatanidan ayrilib, musofirlikning achchiq alamlarini tortgan kishining, begona yurtlarda, notinch odamlar orasida vatansizlikdan rangi roʻyi somon (sariq) boʻlgan kishining achchiq iztiroblari yotibdi.

Yo boʻlmasa: “Oʻzgalar yurtida sulton boʻlguncha, oʻz elingda choʻpon boʻl”, -degan maqolni olaylik. Bu soʻzlar zamirida ham achchiq hayotiy tajribalar mujassam. Beixtiyor shoh va shoir bobomiz Bobur yodga tushadi. Hindistonday katta mamlakatga podshohlik qilgan kishi yurtdoshlari Andijondan qovun olib borganlarida yigʻlagan edi. Haqiqatdan ham Vatan mehridan kuchli narsa dunyoda yoʻq.

Koʻplab maqollarda ichki qofiya boʻladi. Masalan, yuqoridagi ikki misolning birinchisida “omon” bilan “somon” ikkinchisida “sulton” bilan “choʻpon” oʻzaro ohangdosh, yaʼni qofiyadoshdir.

Oʻquvchilarga maqollarning **sheʼriy shakli** haqida ham batafsil maʼlumot berish kerak. Ular shundagina nasriy va sheʼriy maqollarni ajrata oladi. Masalan:

Oltovlon ola boʻlsa,  
Ogʻzidagini oldirar  
Toʻrtovlon tugal boʻlsa,  
Tepadagini endirar.

Maqol birlik, oʻzaro ittifoqlim haqida. Bir kishining olti oʻgʻli boʻlsa-yu, ular bir-birlari bilan ahil boʻlmasa, ogʻzilaridagini oldiradi. Ularni istagan

odam xafa qilishi mumkin. To'rt aka-uka ahil bo'lsa, ular ko'p ish qila oladi. Ya'ni ahillik bo'lmasa, ko'p kishi bilan ham hech ish qila olmasan.

Ifodaga kelsak, "oltovlon" ko'pchilikni, "to'rtovlon" ozchilikni anglatyapti. "Ola bo'lmoq" noahillikni, "tugal bo'lmoq" ahillikni bildirmoqda. "Og'zidagini oldirmoq" bor narsalarni boy berib qo'yimoq, "tepadagini endirmoq" qiyin, murakkab ishlarni ham osongina hal qilmoq ma'nolarini anglatyapti.

Maqolda xalqning tarixi, urf-udumi, turmush tarsi, fe'l-atvori, ruhiyati, qo'yingki, butun borlig'i aks etadi. Shunga ko'ra maqollar xilma-xil mavzularda bo'lishi mumkin. Masalan, do'stlik, Vatan, mehnat, ilm-hunar egallash, botirlik, saxovat, adolat va hokazo.

Maqollarni o'quvchilarga sharhlab tushuntirishda mukammal tuyulgan so'zlarning lug'ati bilan ishlash maqsadga muvofiq. Shu lug'atdagi so'z orqali maqolning yanada ma'nosi chuqurroq tushuniladi. Qaysi maqoldan qay o'rinlarda foydalanishni ham o'rgatadi. Muhimi, ma'no to'g'ri tahlil qilinishi kerak.

Masalan:

Er yigitni nomus o'ldiradi.

**Nomus**-(arabcha vijdon, diyonat; obro'-e'tibor) 1.Kishining o'z obro'sini ulug'lash va ardoqlash his-tuyg'usi; oriyat, diyonat, vijdon. 2.Hijolat tortish his-tuyg'usi; uyat- andisha, sharm, hayo, or.

Tani sog'lik-tuman boylik.

**Tuman**- (mo'g'ulcha – o'n ming) 1. Atmosferaning quyi qatlamlarida yuzaga keladigan mayda suv yoki suv zarralari. 2. Ko'chma ma'noda: tumanga o'xshash xira, nim qo'rong'u holat.

Sayoq yurgan tayoq yeydi.

**Sayoq**- 1.har yerda daydib, sanqib yuradigan: daydi. 2.Yomon yo'llarga yuradigan axloqi buzuq.

Birovga choh qazigan o'zi yiqilar.

**Choh**- (forscha-quduq; chuqur, o'ra) chuqur o'ra.

Betga aytganning zahri yo'q.

**Zahar-** (forscha- og'u, qahr-g'azab) 1. Tirik mavjudotni og'ulab yemiruvchi yoki o'ldiruvchi modda, og'u. 2. Ko'chma ma'noda: og'u singari achchiq, kishi hayotini og'ulaydigan, azobga aylantiradigan narsa, holat.

Ilm-dilning chirog'i,

Maktab-ilm chorbog'i.

**Chorbog'**- (forscha-to'rtta bog', katta va ko'rkam bog') shahardan tashqaridagi hovli joyli, qo'rg'onli bog', bog'cha.

5-sinf Adabiyot darsligida o'quvchilarga maqollardan namunalar keltirilgan. O'quvchi darsda zerikmasligi, mavzu faqat nazariy ma'lumotdan iborat bo'lib qolmasligi uchun "Aqliy hujum" metodidan foydalanish maqsadga muvofiq. Bunda sinfni 3 guruhga bo'lib, tashkil etish mumkin. Guruhlar jamoa bo'lib, "Kim topqir" ta'limiy o'yinini bajaradilar. Ya'ni berilgan maqollarning davomini topadilar. Shunda darsdan ko'zlangan maqsadga erishish mumkin. Mavzuda berilgan barcha maqollar bilan ishlanadi. O'qituvchi va o'quvchilar birgalikda sharhlaydi. Bu o'quvchilarning zihnini o'tkir qiladi, fikrlash dunyoqarashini o'stiradi. Og'zaki nutqi ravon bo'lishini ta'minlaydi.

Masalan:

Ona yurtning –

Xalqqa xizmat –

Vataning tinch –

Bilim –

Aql boshdan, odob –

Oltin o'tda bilinar,

Odam –

Tikansiz gul bo'lmas,

Mashaqqatsiz –

Uying tor bo'lsa ham, ko'ngling –

Jahl dushman, aql –

Chin soʻz - moʻtabar,

Yaxshi soʻz –

Shu tariqa maqollarning davomi topiladi va izohlanadi. Koʻp izohlarini topgan guruh ragʻbatlantiriladi. Buning natijasida oʻquvchilarning chaqqonlik qobiliyati ham rivojlanadi. Dars jarayonini bugungi kun nuqtaiy nazaridan olganimizda oʻqituvchi emas, oʻquvchining oʻzini gapirtirish, shaxsiy fikrlarini oʻstirish talab etiladi. Bunda xalq ogʻzaki ijodi muhim ahamiyat kasb etadi.

Xalq maqolari – boyligimiz. Ota-bobolarimizning siz bilan bizga qoldirgan xazinalaridan biridir.Ularni izlab toppish, sevib oʻrganish lozim. Kerakli oʻrinlarda foydalanishni odat qiling. Shunda ular butun umringiz davomida hamrohingiz boʻladi. Har bir gapirgan gapingizning salmogʻi oshadi. Sermazmun, taʻsirchan boʻladi. El orasida obroʻyingiz yuksaladi.

### III BOB. ADABIY TA'LIMDA O'ZBEK XALQ MAQOLLARINI O'RGATISH BO'YICHA METODIK TAVSIYALAR

#### 3.1. Xalq maqollarini o'rgatishda interfaol usullardan foydalanish

##### “SWOT-tahlil” metodi.

**Metodning maqsadi:** mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo'llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandart tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

<b>S – (strength)</b>	• <b>кучли томонлари</b>
<b>W – (weakness)</b>	• <b>заиф, кучсиз томонлари</b>
<b>O – (opportunity)</b>	• <b>имкониётлари</b>
<b>T – (threat)</b>	• <b>тўсиқлар</b>

##### “Xulosalash» (Rezyume, Veer) metodi

**Metodning maqsadi:** Bu metod murakkab, ko'ptarmoqli, mumkin qadar, muammoli xarakteridagi mavzularni o'rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo'yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, muammo ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo'yicha o'rganiladi. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o'quvchilarning mustaqil g'oyalari, fikrlarini yozma va og'zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. “Xulosalash” metodidan

ma'ruza mashg'ulotlarida individual va juftliklardagi ish shaklida, amaliy va seminar mashg'ulotlarida kichik guruhlardagi ish shaklida mavzu yuzasidan bilimlarni mustahkamlash, tahlili qilish va taqqoslash maqsadida foydalanish mumkin.

### **“Keys-stadi” metodi**

«**Keys-stadi**» - inglizcha soʻz boʻlib, («case» – aniq vaziyat, hodisa, «stadi» – oʻrganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni oʻrganish, tahlil qilish asosida oʻqitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921 yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini oʻrganishda foydalanish tartibida qoʻllanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqeya-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari oʻz ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When), Qaerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday/Qanaqa (How), Nima-natija (What).

### **«FSMU» metodi**

**Texnologiyaning maqsadi:** Mazkur texnologiya ishtirokchilardagi umumiy fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni oʻzlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash koʻnikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur texnologiyadan ma'ruza mashg'ulotlarida, mustahkamlashda, oʻtilgan mavzuni soʻrashda, uyga vazifa berishda hamda amaliy mashg'ulot natijalarini tahlil etishda foydalanish tavsiya etiladi.

### **Texnologiyani amalga oshirish tartibi:**

- qatnashchilarga mavzuga oid boʻlgan yakuniy xulosa yoki gʻoya taklif etiladi;
- har bir ishtirokchiga FSMU texnologiyasining bosqichlari yozilgan qogʻozlarni tarqatiladi:



- ishtirokchilarning munosabatlari individual yoki guruhiiy tartibda taqdimot qilinadi.

FSMU tahlili qatnashchilarda kasbiy-nazariy bilimlarni amaliy mashqlar va mavjud tajribalar asosida tezroq va muvaffaqiyatli o'zlashtirilishiga asos bo'ladi.

### “Assesment” metodi

**Metodning maqsadi:** mazkur metod ta'lim oluvchilarning bilim darajasini baholash, nazorat qilish, o'zlashtirish ko'rsatkichi va amaliy ko'nikmalarini tekshirishga yo'naltirilgan. Mazkur texnika orqali ta'lim oluvchilarning bilish faoliyati turli yo'nalishlar (test, amaliy ko'nikmalar, muammoli vaziyatlar mashqi, qiyosiy tahlil, simptomlarni aniqlash) bo'yicha tashhis qilinadi va baholanadi.

### Metodni amalga oshirish tartibi:

“Assesment” lardan ma'ruza mashg'ulotlarida talabalarning yoki qatnashchilarning mavjud bilim darajasini o'rganishda, yangi ma'lumotlarni bayon qilishda, seminar, amaliy mashg'ulotlarda esa mavzu yoki ma'lumotlarni o'zlashtirish darajasini baholash, shuningdek, o'z-o'zini baholash maqsadida individual shaklda foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek, o'qituvchining ijodiy yondashuvi hamda o'quv maqsadlaridan kelib chiqib, assesmentga qo'shimcha topshiriqlarni kiritish mumkin.

## **“Tushunchalar tahlili” metodi**

**Metodning maqsadi:** mazkur metod talabalar yoki qatnashchilarni mavzu buyicha tayanch tushunchalarni o‘zlashtirish darajasini aniqlash, o‘z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash, shuningdek, yangi mavzu buyicha dastlabki bilimlar darajasini tashhis qilish maqsadida qo‘llaniladi. Metodni amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar mashg‘ulot qoidalari bilan tanishtiriladi;
- o‘quvchilarga mavzuga yoki bobga tegishli bo‘lgan so‘zlar, tushunchalar nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi ( individual yoki guruhli tartibda);
- o‘quvchilar mazkur tushunchalar qanday ma'no anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo‘llanilishi haqida yozma ma'lumot beradilar;
- belgilangan vaqt yakuniga yetgach o‘qituvchi berilgan tushunchalarning tugri va tuliq izohini uqib eshittiradi yoki slayd orqali namoyish etadi;
- har bir ishtirokchi berilgan tugri javoblar bilan uzining shaxsiy munosabatini taqqoslaydi, farqlarini aniqlaydi va o‘z bilim darajasini tekshirib, baholaydi.

## **Venn Diagrammasi metodi**

**Metodning maqsadi:** Bu metod grafik tasvir orqali o‘qitishni tashkil etish shakli bo‘lib, u ikkita o‘zaro kesishgan aylana tasviri orqali ifodalanadi. Mazkur metod turli tushunchalar, asoslar, tasavurlarning analiz va sintezini ikki aspekt orqali ko‘rib chiqish, ularning umumiy va farqlovchi jihatlarini aniqlash, taqqoslash imkonini beradi.

### **Metodni amalga oshirish tartibi:**

- ishtirokchilar ikki kishidan iborat juftliklarga birlashtiriladilar va ularga ko‘rib chiqilayotgan tushuncha yoki asosning o‘ziga xos, farqli jihatlarini (yoki



aksi) doiralar ichiga yozib chiqish taklif etiladi;

- navbatdagi bosqichda ishtirokchilar to‘rt kishidan iborat kichik guruhlarga birlashtiriladi va har bir juftlik o‘z tahlili bilan guruh a‘zolarini tanishtiradilar;

- juftliklarning tahlili eshitilgach, ular birgalashib, ko‘rib chiqilayotgan muammo yohud tushunchalarning umumiy jihatlarini (yoki farqli) izlab topadilar, umumlashtiradilar va doirachalarning kesishgan qismiga yozadilar.

### **“Blits-o‘yin” metodi**

**Metodning maqsadi:** o‘quvchilarda tezlik, axborotlar tizmini tahlil qilish, rejalashtirish, prognozlash ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat. Mazkur metodni baholash va mustahkamlash maksadida qo‘llash samarali natijalarni beradi. **Metodni amalga oshirish bosqichlari:**

1. Dastlab ishtirokchilarga belgilangan mavzu yuzasidan tayyorlangan topshiriq, ya'ni tarqatma materiallarni alohida-alohida beriladi va ulardan materialni sinchiklab o‘rganish talab etiladi. Shundan so‘ng, ishtirokchilarga to‘g‘ri javoblar tarqatmadagi «yakka baho» kolonkasiga belgilash kerakligi tushuntiriladi. Bu bosqichda vazifa yakka tartibda bajariladi.
2. Navbatdagi bosqichda trener-o‘qituvchi ishtirokchilarga uch kishidan iborat kichik guruhlarga birlashtiradi va guruh a‘zolarini o‘z fikrlari bilan guruhdoshlarini tanishtirib, bahslashib, bir-biriga ta'sir o‘tkazib, o‘z fikrlariga ishontirish, kelishgan holda bir to‘xtamga kelib, javoblarini «guruh bahosi» bo‘limiga raqamlar bilan belgilab chiqishni topshiradi. Bu vazifa uchun 15 daqiqa vaqt beriladi.
3. Barcha kichik guruhlar o‘z ishlarini tugatgach, to‘g‘ri harakatlar ketma-ketligi trener-o‘qituvchi tomonidan o‘qib eshittiriladi, va o‘quvchilardan bu javoblarni «to‘g‘ri javob» bo‘limiga yozish so‘raladi.

4. «To‘g‘ri javob» bo‘limida berilgan raqamlardan «yakka baho» bo‘limida berilgan raqamlar taqqoslanib, farq bulsa «0», mos kelsa «1» ball quyish so‘raladi. Shundan so‘ng «yakka xato» bo‘limidagi farqlar yuqoridan pastga qarab qo‘shib chiqilib, umumiy yig‘indi hisoblanadi.
5. Xuddi shu tartibda «to‘g‘ri javob» va «guruh bahosi» o‘rtasidagi farq chiqariladi va ballar «guruh xatosi» bo‘limiga yozib, yuqoridan pastga qarab qo‘shiladi va umumiy yig‘indi keltirib chiqariladi.
6. Trener-o‘qituvchi yakka va guruh xatolarini to‘plangan umumiy yig‘indi bo‘yicha alohida-alohida sharhlab beradi.
7. Ishtirokchilarga olgan baholariga qarab, ularning mavzu bo‘yicha o‘zlashtirish darajalari aniqlanadi.

### 3.2.Mavzu yuzasidan ochiq dars ishlanmasi

Quyida 5-sinfda o'rganilishi nazarda tutilgan "Hikmat durdonalari. Maqollar" mavzusidagi dars ishlanmasini keltirib o'tamiz.

**Mavzu:** Hikmat durdonalari. Maqollar

**Dars shiori:** "Ko'p bilgan kam bo'lmas".

<b>Mavzu</b>	Maqollar
<b>Maqsad</b>	<p><b>Darsning ta'limiy maqsadi:</b></p> <p>O'quvchilarga hikmat durdonalaridan biri bo'lgan, maqollar haqida nazariy ma'lumot berish. Gapdagi ahamiyati va ishlatish o'rnini haqida tushuncha berish.</p> <p><b>Darsning tarbiyaviy maqsadi:</b></p> <p>O'quvchilarni milliy qadriyatlarimiz va an'analarimizga sadoqat ruhida tarbiyalash. Ularda oliyjanob fazilatlarni shakllantirish.</p> <p><b>Darsning rivojlantiruvchi maqsadi:</b></p> <p>O'quvchilar fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, dunyoqarashini kengaytirish, og'zaki nutqini o'stirish, hozirjavoblikka undash..</p>
<b>Vazifalari</b>	<p><b>Vazifalari:</b> O'quvchilarda mavzuga nisbatan qiziqish uyg'otish, ularda mavzu asosida bilim va ko'nikmalarni shakllantirish, kengaytirish;</p> <p>Mavzuga oid berilgan savollarni o'quvchilar tomonidan guruh holatida o'zlashtirib olishlari hamda berilgan topshiriqlar qay darajada o'zlashtirilganligini nazorat qilish, ularning bilimini baholash.</p>
<b>O'quv jarayonining mazmuni</b>	<p>Maqollar mavzulari, ma'nolari, ishlatilish o'rnini;</p> <p>Og'zaki va yozma nutqda maqollardan nutq vaziyatiga mos holda qo'llash.</p>
<b>O'quv jarayoni amalga oshirish</b>	<p><b>Uslub:</b> "Baliq suyagi o'yini", "Kontinium" metodi, "Davom ettir" metodi, rasmga qarab maqol aytish.</p> <p><b>Vosita:</b>5-sinf . Adabiyot darsligi, mavjud texnologik vositalar, mavzuga oid ko'rsatmali va tarqatma materiallar.</p>

<b>texnologiyasi</b>	<p><b>Nazorat:</b> Og'zaki nazorat, savol-javob.</p> <p><b>Baholash:</b> 5 balli tizim asosida.</p>
<b>Kutiladigan natijalar</b>	<p><b>O'qituvchi:</b> Mavzuni qisqa vaqt ichida barcha o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishiga erishadi. O'quvchilarda mavzuga nisbatan qiziqish uyg'otadi. Bir darsda barcha o'quvchi baholanadi. O'quvchilar tomonidan darsni mustaqil o'rganish va uni xotirada saqlash, boshqalarga yetkazish, savol berish va savollarga javob berishga o'rgatadi.</p> <p><b>O'quvchi:</b> Yangi bilimlarni egallaydi. Yakka va guruh bo'lib ishlashni o'rganadi, nutqi rivojlanadi. Qisqa vaqt ichida ko'p ma'lumotga ega bo'ladi.</p>
<b>Kelgusi rejalar</b>	<p><b>O'qituvchi:</b> Pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirish va darsda tatbiq etish, takomillashtirish, o'z ustida ishlash. Pedagogik mahoratni oshirish.</p> <p><b>O'quvchi:</b> Mustaqil ishlashni o'rganadi. O'z fikrini ravon bayon qila oladi. Shu mavzu asosida qo'shimcha materiallar izlaydi, ularni o'rganadi. Do'stona muhitda, hamkorlikda ishlash ko'nikmasi shakllanadi.</p>

### **Dars uchun qoidalar:**

1. Qo'l ko'tarib javob berish.
2. Faol qatnashish.
3. Bir-birini eshitish.
4. Intizomga rioya etish.

### **DARSNING BORISHI:**

Salomlashish, davomat, tartib-intizom, mamlakatimizdagi yangiliklardan xabardor etish.

**O'tgan mavzu:** Adabiyot-so'z san'ati.

**O'qituvchi:**

- Qani ayting-chi, adabiyot o'zi nima? Nima uchun biz uni "so'z san'ati" deymiz?

1-o'quvchi:

- Adabiyot-insonlarga odob va yaxshi fazilatlarni singdiruvchi kuch.

2- o'quvchi:

-Adabiyot insonning orzu-xayoli, umid va armonlarini badiiy so'z yordamida ifoda etish .

**O'qituvchi:**

- Demak, adabiyotning asosiy quroli—bu badiiy so'z.

E'tabor bering-a, siz qiziqarli ertak kitob o'qidingiz, sahifaning qiziq joyi yirtilgan. Siz qanday ahvolga tushasiz? Ich-etingizni yeb: "Davomi qanday bo'ldi ekan" deysiz.

Mana, badiiy so'zning kuch-qudrati. Ba'zan asar qahramonlari bilan xayolan to'qnashasiz, ba'zan ularga havasingiz keladi, ba'zan nafratlanasiz.

Zero, yurtboshimiz Islom Karimov o'zining "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" asarida ta'kidlaganidek, so'z san'ati azaldan xalq qalbining ifodachisi, haqiqat va adolat jarchisi bo'lib kelgan.

Ayting-chi, oxirgi o'qigan badiiy asaringiz qaysi?

( Bu bilan o'quvchilarni kitobsevarlikka undash mumkin).

O'quvchilar o'z o'qigan kitoblarini sanab o'tishdi.

**O'qituvchi:**

- Adabiyotning qanday turlarini bilasiz?

**1-o'quvchi:**

-She'riyat-she'rlar, masallar, dostonlar yaratiladigan tur.

**2-o'quvchi:**

-Nasr-ertaklar hikoya va ocherklar, qissa va romanlar yaratiladigan tur.

**3-o'quvchi:**

-Dramaturgiya-barcha sahna asarlari, drama, komediya va tragediya kabi sahna asarlari yaratiladigan tur.

**O'qituvchi:**

-Barakalla, endi siz mana shunday muhim va mo'tabar san'at turning mo'jizakor olamiga sayohatga chiqasiz, adabiyot atalmish so'z san'atini o'zingizga doimiy hamroh qilib olasiz.

**O'qituvchi:**

-Uyga qanday topshiriq berilgan edi?

**4-o'quvchi:**

-Adabiyot daftarimizga ulug' kishilarning so'z va adabiyot to'g'risida aytgan hikmatlaridan yozib kelish.

**O'qituvchi:**

-Qani, marhamat, eshitamiz.

**1-o'quvchi:**

-Tilga e'tiborsiz, elga ixtiyorsiz. (A. Navoiy)

**2-o'quvchi:**

-So'z durkim, jon berar o'likka jondin  
So'z durkim, nishon berur anga hayvondin.

**3-o'quvchi:**

-Adabiyot-atomdan kuchli. (A. Qahhor)

**YANGI MAVZUNING BAYONI:**

Maqol ota-bobolarimizning uzoq yillar davomida ko'rgan-kechirganlari, tajribalari asosida kelgan xulosa so'zlaridir. "Ona yurtning omon bo'lsa, rangi ro'ying somon bo'mas" deymiz. Bu so'lar zamirida vatanidan ayrilib, musofirlikning achchiq alamlarini tortgan kishining begona yurtlarda, notanish odamlar orasida vatansizlikdan rangi ro'yisamon (sariq) bo'lgan achchiq iztiroblari yotibdi.

"Maqol" aslida arabcha "so'z" degan ma'noni bildiradi. Uni "Otalar so'zi" deb atashgan. Bunday nomlash maqolni tushunishni osonlashtiradi. Haqiqatan ham, u ota-bobolarimizning qadim-qadimlardan ishlatgan so'zi.

Maqol ibratli soʻzdir. Shunday soʻzki, soʻzga husn beradi, fikrni tushunib olishni osonlashtiradi, uni yorqin va taʼsirchan qiladi. Shuning uchun ham maqol odam nutqida har doim hamroh boʻladi. Maqol qoʻshib gapirgan odamning nutqini shirali deydilar va diqqat bilan eshitadilar.


Gulxaniy degan shoir bobomiz “Zarbulmasal” nomli asarini boshidan oxirigacha maqol qoʻshib yozgan. Unda yapaloqqush va boyoʻgʻlining qudachilik mojarolari tasvirlangan boʻlib, ular tilidan 400 dan ortiq maqol aytiladi.

Maqolda fikr aniq, xulosa tugal, ifoda ravon boʻlishi lozim.

Maqol Vatan, ota-ona, doʻstlik, mehnat, hunar, soʻz haqida, shuningdek, barcha oliyjanob fazilatlar toʻgʻrisida boʻladi. Maqollarda soʻzlar koʻpincha koʻchma maʼnoda keladi. Masalan, ”Sinalmagan otning sirtidan oʻtma”. Bunda bilmagan, tanimagan odamga siringni berma maʼnosi yotibdi.

### ***“BALIQ SUYAGI” OʻYINI***

Oʻqituvchi oʻquvchilarga “Nima yaxshi-yu, nima yomon?” tarzida savol tashlaydi. Oʻquvchilar insonning yaxshi-yomon xususiyatlarini birma-bir sanashadi. Oʻqituvchi doskaga quyidagi rasmni chizib qoʻyadi.



Oʻquvchilar tepa qismiga insonning yaxshi fazilatlarini, pastki qismiga yomon xususiyatlarini yozib chiqishdi.

**1-oʻquvchi:** oq koʻngil .

**2-o'quvchi:** saxiy.

**3-o'quvchi:** shirinso'z.

**4-o'quvchi:** mehribon.

**O'qituvchi:**

- Endi insonning nuqsonlarini pastki qismiga joylashtiring.

**1-o'quvchi:** baxil.

**2-o'quvchi:** qizg'anchiq.

**3-o'quvchi:** behayo.

**4-o'quvchi:** yolg'onchi.

**O'qituvchi:**

- Bundan qanday xulosa chiqaramiz?

**1-o'quvchi:**

- Insonlar barcha yaxshi fazilatlar egasi bo'lmog'i lozim.

Yomon odatlarni tashlashi kerak.

**O'qituvchi:**

- Shuning uchun ham xalqimizda "Inson-odobi bilan go'zal", "Bola boshidan ma'lum", "Otang bolasi bo'lma, odam bolasi bo'l" kabi maqollar mavjud.

Barcha javoblar doskaga yozildi. Mazmun jihatdan o'xshash javoblarni birlashtirish mumkin.

**"KONTINIUM" USULI** (O'z nuqtayi nazarini belgila).

O'qituvchi "Ha", "Yo'q", "Bilmayman" degan so'zlar yozilgan varaqlarni osib qo'yadi. Ovoz berish uchun turli rangdagi varaqlarni tarqatdi. "Ha" (qizil), "Yo'q" (sariq), "Bilmayman" (yashil).

Har bir guruh tanlagan javobini aytadi.

O'qituvchi do'stlik, mehnat, so'z haqida variantlar aytadi.

(Do'stlik mavzusida)

1. Do'stlikni qadrlayman.
2. Do'stinga ishonmayman.
3. Mening chin do'stim bor.



(Mehnat mavzusida)

1. Mehnat qilishni yaxshi ko'raman.
2. Bir oz dangasaman.
3. Mehnat kishini charchatadi.

(So'z haqida)

1. Men oz gapiraman, eshitishni yoqtiraman.
2. Men ko'p gapirishni yoqtiraman.
3. Men boshqalar fikrini qadrlayman.

(Vatan mavzusida)

1. Men vatanim bilan faxrlanaman.
2. Men uyumizdan uzoqlashishni xohlamayman.
3. Men chet ellarda yashashni orzu qilaman.

O'qituvchi "Ha", "Yoq", "Bilmayman" javoblari orqali ham ularning psixologik xususiyatlarini aniqlaydi, hamshu mavzulardagi maqollarning mazmunini singdirishga harakat qiladi.

***Quyidagi maqollar asosida rasm chizishga harakat qiling.***

1. Ko'chat ek, bog' yarat.
2. Birni kessang, o'nni ek.
3. Yaxshidan bog' qoladi.

1. Kitob ko'rmagan kalla,  
Giyoh unmaganda dala.
2. Kitob-aql chirog'i.
3. Kitob-bilim manbai.

1. Do'stsiz boshim-tuzsiz oshim.
2. Do'st so'zini tashlama,  
Tashlab boshing qashlama.

3.Do'st kulfatda sinaladi.

**„DAVOM ETTIR” O’YINI.** (Kichik guruhlarda ishlash)

O’quvchilarga 10 ta har xil mavzudagi maqollar beriladi.O’qituvchi yarmigacha o’zi aytadi, o’quvchilar davom ettiradi.O’quvchilar kichik guruhlarga bo’linadi va kengashib,berilgan savollarga to’g’ri javob berishga harakat qilishadi.

- 1.Ona yurting- (oltin beshiging)
- 2.Izzat tilasang ko’p dema,(Sihat tilasang, ko’p yema)
- 3.Bulbul chamanni sevar,(odam vatanni)
- 4.Vaqting ketdi-(naqding ketdi)
- 5.Yurgan daryo-(o’tirgan buyra)
- 6.Do'st achitib gapirar,(Dushman kuldirib)
- 7.Tilga e'tiborsiz-(Elga ixtiyorsiz)
- 8.Yetti o'lchab,(bir kes)
- 9.Birovga choh qazisang,(o'zing tushasan)
- 10.Tani sog'lik-(tuman boylik)

### **TEZKOR SAVOLLAR**

1.Maqol deb nimaga aytiladi?

**1-guruh** (Ota-bobolarimiz uzoq yillar davomida ko’rgan tajribalari, xulosalari)

2.Maqol so’zi qanday ma’noni bildiradi?

**2-guruh** (Arabcha,,so’z” degan ma’noni bildiradi)

3.Maqol qanday belgi-xususiyatlarga ega?

**3-guruh** (Maqolda fikr aniq,xulosa tugal,ifoda ravon bo’lishi lozim)

4.She’riy shakldagi maqolga misol ayting.

**4-guruh:**

Oltovlon ola bo’lsa,

Og’zidagin oldirar.

To’rtovlon tugal bo’lsa,

O’nmaganin o’ndirar.

5. Maqol qanday mavzularda bo'ladi?

**5-guruh** (Vatan, ota-ona, mehnat, yaxshi so'z va h)

***BAHOLAR E'LONI:***

a) rag'batlantirish va ogohlantirish.

b) kundalik va jurnalga qayd etish.

***UYGA VAZIFA:*** Yoshi katta kishilardan yangi maqollar o'rganib, yodlab kelish va ma'nosini izohlab berish.

**Darsni yakunlash.** O'quvchilar bilan samimiy xayrlashish.

## UMUMIY XULOSALAR

Yuqori sinflardagi adabiyot darslari o'z mohiyati, maqsad va vazifalariga ko'ra ta'lim tizimida alohida o'rin tutadi. Negaki uning zaminida savodxonlik va axloqiy-ta'limiy tarbiya asoslari turadi. Shuning uchun ham boshqa predmetlar ta'limini adabiyot ta'limsiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

O'quvchi matni to'g'ri tushunib, mazmunini o'zlashtirish bilan ilk bor boshlang'ich sinf o'qish darslarida yuzlashadi. O'qish darslari orqali o'quvchilarning Davlat ta'lim standarti (DTS) talablari bo'yicha o'zlashtirishlari ko'zda tutilgan o'quv-biluv ko'nikma-malakalari hamda bilimlarni egallashlariga yo'l ochiladi. Aynan adabiyot ta'limida insonning, avvalo, o'zligini, qolaversa, olamni anglashga bo'lgan intilishlariga turtki beriladi.

Shu maqsadda "Adabiyot" darsliklariga ona tabiat, atrofimizni o'rab turgan olam, Vatanimiz tarixi va bugungi qiyofasi, kattalar va bolalar hayoti, mehnatsevarlik, istiqlol va milliy-ma'naviy qadriyatlar, xalqlar do'stligi va tinchligi kabi turli mavzular bo'yicha atroflicha tushunchalar berishga mo'ljallangan badiiy, axloqiy-ta'limiy, ilmiy-ommabop asarlar kiritiladi.

Yuqori sinf "Adabiyot" darsliklariga kiritilgan muayyan mavzular o'quvchilarni badiiy adabiyotning sehrli olamiga olib kirishi, dunyoqarashlarini milliy istiqlol mafkurasi asosida to'g'ri shakllantirishga qaratilishi bilan belgilanadi. Shunga ko'ra, adabiyot darslarining yetakchi xususiyati o'quvchilarning savodxonligini ta'minlash bilan birga, o'quvchilarni milliy mafkura asosida yuksak axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga qaratiladi.

Yuqori sinflarning adabiyot darslarida o'rganiladigan asarlarning mavzu doirasi ancha keng bo'lib, ular mehnatga muhabbat, xalq og'zaki ijodi, asosiy bayram sanalari, milliy istiqlol va ma'naviyat kabi umumiy mavzular doirasida birlashtirilgan.

Adabiyot darslari uchun tanlangan mavzular o'quvchilarga kundalik hayot, mustaqilikni mustahkamlash va insoniy munosabatlar bo'yicha ham bilim va tarbiya berishni ko'zda tutadi. Bular ichida istiqlol, vatan, ma'naviyat va tabiat haqidagi mavzular alohida ajralib turadi. Ulardan ko'zlangan maqsad

o'zlikni anglash, istiqlol, vatan va tabiat bilan bo'g'liq tuyg'ularni o'ygotishdir. Mana shunday mavzulardan biri maqollar mavzusidir. Shu jihatdan tanlangan mavzu hozirgi vaqtda olib borilayotgan ta'lim-tarbiya ishlarining eng dolzarb mavzularidan sanaladi.

Shunday ekan, yosh avlodni har tomonlama etuk, Vatan va xalqqa, milliy an'analarga sadoqatli qilib tarbiyalashda maktab adabiy ta'limining roli va o'rni nihoyatda kattadir. Bu jarayonda xalq maqollaridan foydalanish bola tarbiyasi uchun juda muhim. Shu bois ham xalq donishmandligining noyob namunasi bo'lgan xalq maqollarini o'qitishda eng maqbul usullarni tanlash va shu asosda dars mashg'ulotlarini tashkil qilish davr talabidir. Chunki, maqollar:

- o'quvchilarni komil inson bo'lib tarbiyalanishiga xizmat qiladi;
- o'quvchilar yodlash orqali xotirasini mustahkamlaydi;
- o'quvchilar nutqini o'stiradi;
- qaysi o'rinda ishlatilishini bilish – ularning dunyoqarashini kengaytirishga, fikrlari teranlashishiga turtki bo'ladi;
- ularni mustaqil izlanishga, yig'ib, to'plashga undaydi;
- milliy qadriyatlarimizga, xalq og'zaki ijodiga bo'lgan mehri oshadi.

Xullas, maqollar xalq donishmandligi, xalq pedagogikasining bitmas-tuganmas javohirlaridir. Undan bahramand bo'lish, yosh avlod tarbiyasida dasturilamal sifatida foydalanish har bir zamondoshning, ota-ona, o'qituvchi va tarbiyachining muqaddas burchidir.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Karimov I.A. “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” “Manaviyat” 2009 – yil Toshkent.
2. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010. – 39 b.
3. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. Ta’lim to’g’risida. Oliy ta’lim. Me’yoriy-huquqiy va uslubiy hujjatlar to’plami. – Toshkent: Istiqlol nashriyoti sho’ba korxonasi bosh tahririyati, 2004. 3-8-betlar.
4. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to’g’risida. Oliy ta’lim. Me’yoriy-huquqiy va uslubiy hujjatlar to’plami. – Toshkent: Istiqlol nashriyoti sho’ba korxonasi bosh tahririyati, 2004. 9-23-betlar.
5. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. Davlat tili haqida. Davlat va millat ramzlari. Ona tili – davlat tili.(O‘quv qo‘llanma – majmua). – Toshkent: Adolat, 2004. 29-35-betlar.
6. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to’plami. 7-11-tomlar.Toshkent: «Fan» 1991-1993.
7. Vohidov R., Mahmudov M. Ma’naviyat - komillik saodati. Toshkent: «Ma’naviyat», 1997.
8. To‘xliiev B. Adabiyot o‘qitish metodikasi. T.: «Yangi asr avlodi». 2006.
9. Mirqosimova M. Adabiy ta’lim metodikasi. –T.: 1993.
- 10.Ishmuhamedov R va b. «Ta’limda innovatsion texnologiyalar» T.2008.
- 11.O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Besh jildlik. 1-5-jild. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006
- 12.Aristotel`. Poetika. (Poeziya san`ati haqida). –Toshkent: Adabiyot va san`at, 1980.
- 13.O‘zbek xalq maqollari. Toshkent: Sharq, 2012.
- 14.5-sinf Adabiyot darsligi.
- 15.5-sinf Adabiyot darsligi uchun metodik qo‘llanma.

## **Foydalanilgan information resurslar**

[www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)

[www.ziyo.com](http://www.ziyo.com)

[www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)

[www.kitob.uz](http://www.kitob.uz)

[www.e-adab.uz](http://www.e-adab.uz)

<http://lectures.ndpi.uz/>